

Journal of New Century Innovations

VOLUME
66
ISSUE-2



Journal of new
century innovations

Exact and natural sciences



Pedagogical sciences

Social sciences and humanities

Engineering and Medical Sciences

ISSN (p): 2181-3671
ISSN (e): 2181-368X



Google
Scholar



newjournal.org



**JOURNAL OF NEW CENTURY
INNOVATIONS**

VOLUME – 66 | ISSUE - 2

December - 2024



TIL TARIXI VA UNING PAYDO BO‘LISHI

Axmatova Feruza Turdialiyevna
Samarqand davlat chet tillar instituti
Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishi
2-bosqich 2333-guruh talabasi
axmatovaferuza224@gmail.com
+998934566205

Annotatsiya: Ushbu maqolani yozishimdan maqsad til,til tarixi,uning yaratilish bosqichlari,inson va jamiyat hayotidagi o‘rni haqida ma’lumotlar berilgan.Bundan tashqari tilning paydo bo‘lishi haqidagi turli nazariyalar,ularning talqini va ilmiy asosi.Shu maqolamda shular haqida ma’lumot berib o‘taman.

Kalit so‘zlar: Til,til tarixi,yaratilish bosqichlari,inson va jamiyat, nazariyalar,ovozga taqlid,undov,mehnat qiyqiriqlari,imo-ishora.

Til ijtimoiy hodisa hisoblanib,til deb murakkab muloqat tizimiga yoki shu tizimni o‘rganish va ishlatish qobiliyatiga aytiladi.Bundan tashqari til ma’lumot almashish vositasi ham hisoblanadi.Shuningdek,til asosan muloqot vositasi ham.Odamlar tilni yosh bolalik paytidagi ijtimoiy o‘zaro munosabat orqali o‘zlashtiradilar va o‘rtacha uch yoshga kelib ravon gapira oladilar.Til ishlatish odam madaniyatiga chuqur singgan.Binobarin,til faqatgina muloqat vositasi bo‘lib qolmay,balki individuallik,ijtimoiy stratifikatsiya,parvarish va ermak kabi ijtimoiy va madaniy rollarga ham ega.

Tillar vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi,ularning evolutsiyasini qadimgi tillar keyingi bosqichlar sodir bo‘lishi uchun qanday belgilarga ega bo‘lganini aniqlovchi va ularni zamonaviy taqqoslovchi tarixiy tilshunoslik o‘rganadi.Til konkret nutq hodisalar(ayrim gaplar,hikoyalar,bir necha kishining suhbat va shu kabilar),jumladan,og‘zaki yoki mexanik usulda takrorlanadigan va yozuv orqali qayd etiladigan nutq hodisalarida mavjud bo‘ladi.Hozirgi davrda turli millat,elat va qabilalarga tegishli 2500 dan 5000 tagacha (ba’zi manbalarda 3000-7000 oralig‘ida) jonli til borligi ma’lum.Ularning har birida barcha tillar uchun umumiy bo‘lgan ba’zi universal struktur xususiyatlar mavjud bo‘ladi.

Tillar har qanday so‘zlar,iboralar yo‘q joydan paydo bo‘lishi mumkin emas,ya’ni har bir so‘z odamlar hayotining muhim bir qismi hisoblanadi.Shuning uchun tilning har bir inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini inkor etib bo‘lmas darajada yuqori.Til ko‘plab funksiyalarni bajaradi,ularning asosiylari:ma’lumot uzatish usuli va o‘z fikrlarini rasmiylashtirish usuli.Shuni ta’kidlab o‘tish mumkinki,tilning ma’lum sakkiz ma’nosidan biri xalqdir.Birinchi navbatda , til

jamoaviy mehnat mahsuli bo‘lib, u kishilarni birlashtirish maqsadida yaratilganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu uning jamiyat bilan aloqasini ko‘rsatadi. Til o‘z xalqining tarixi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, til qadimgi davrlarda yuz bergan tarixiy o‘zgarishlar, ona yurtimiz boshidan kechirgan taraqqiyot yo‘li haqida hikoya qiladi. Aynan mana shu muloqot vositasi bir xalqning taraqqiyotini aks ettiradi, unda sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni o‘rganib, uning mamlakatning tarixiy merosiga qo‘shiladi.

TILNING PAYDO BO‘LISHI VA TURLI XIL NAZARIYALAR.

Tilning paydo bo‘lish masalasi insoniyatni qadimgi zamonlardan beri qiziqtirib keldi, Qadimgi davrlardan beri tilning kelib chiqishi haqida ko‘plab nazariyalar, ta’limotlar paydo bo‘ldi.

Qadimgi Yunonistonda faylasuflar tilnin qay tarzda kelib chiqqanligi haqida uzoq davr qizg‘in bahs olib borganlar. Tilshunoslik tarixidan ma’lumki, bu masalada Grek faylasuflari bir-biriga zid ikki xil farazni o‘rtaga tashlagan. Demokrit va boshqalar tilda narsa nomi bilan narsa orasida hech qanday bog‘lanish yo‘q, bu nomlar mazkur tilda gaplashuvchi odamlar tomonidan yaratilgan, demak, til inson tomonidan yaratilgan degan fikrni ilgari surishgan. Bu guruh olimlar anomalsitlar deb nom olgan. Platon boshliq boshqa bir guruh olimlar “narsa bilan uning nomi orasida muayyan bog‘lanish bor. Bu bog‘lanish narsalarning xususiyatlaridan, tabiatidan kelib chiqqan va bu bog‘lanish ilohiy kuch tomonidan o‘rnatilgan” degan fikrni ilgari surishgan. Tarixda bu oqim analogistlar deb nom olgan.

Tilning paydo bo‘lishi bir tomondan kishilik tanasining evolyutsiyasi bilan, ikkinchi tomondan, ibtidoiy jamoaning jamiyatga aylanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Hozirgacha tilning paydo bo‘lishi haqida turli nazariyalar yaratilgan.

Ovozga taqlid nazariyasi. Bu nazariya qadimgi yunon olimlari Demokrit va Platonlar davrida paydo bo‘lib, XX asrgacha yashab keldi. Ovozga taqlid nazariyasiga ko‘ra, yer yuzida paydo bo‘lgan dastlabki, odamlar ongli ongsiz ravishda tevarak – atrofdagi turli-tuman predmetlarning tovushlarga, yirtqich hayvonlarning o‘kirishi, qushlarning sayrashi, tezoqar suvning shildirashi, shamolning uvillashi kabilarga taqlid qilish natijasida nutq paydo bo‘lgan. Masalan: Chirillamoq, shildiramoq kabilar. Ammo bu so‘zlar hamma tilde mavjud bo‘lsa ham ozchilikni tashkil etadi. Tabiatda tovush chiqarmaydigan narsalardan tovush chiqaradiganlari kam.

Ovozga taqlid nazariyasi tafakkur va tilning chambarchas bog‘liqligini inobatga olmaydi, til va nutqni farqlamaydi, tilning paydo bo‘lishidagi ijtimoiy zaruriyatni e’tibordan chetda qoldiradi. Bu nazariya tilning paydo bo‘lish masalasini hal etmaydi.

Undov nazariyasi. Ushbu nazariya tarafdorlari tildagi barcha so‘zlar kishilarning his-tuyg‘ulari, qahr-g‘azablari, hayajonlari ta’sirida ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz baqirishlari natijasida paydo bo‘lgan, deb da’vo

qiladilar.Masalan:Oh(ohlamoq),uff(uflamoq),dod(dodlamoq) va boshqalar.Tildagi boshqa soʻzlar esa ana shu soʻzlarning kombinatsiyalaridan kelib chiqqan.Undov nazariyasi tilning ijtimoiy xarakterini inobatga olmaydi,yaʼni biologik aspektning birgina jihatiga tayanib inson va kishilik jamiyatining paydo boʻlishini hisobga olmaydi.Bu gʻayriilmiy nazariyadir.

Mehnat qiyqiriqlari nazariyasi. Bunda tildagi barcha soʻzlar ibtidoiy kishilarning birgalashib mehnat qilishlari jarayonida mehnat qilishga undaydigan ixtiyorsiz qiyqirishlari natijasida paydo boʻlgan.Uning asoschisi XIX asrning ikkinchi yarimida yashagan fransuz faylasufi L.Nuaredir.Nemis olimi Karl Byuxer ham shu nazariyani qoʻllab quvvatlagan.Bu nazariya Undov nazariyasiga oʻxshab ketadi.Biroq bunda qiyqiriqlar va hayqiriqlar kishilarning mehnati jarayonida yuz beradi. Instinktiv qiyqiriqlar mehnat bilan bogʻliq boʻlsa-da,u biologik faktordir.Hayqiriqlar,qiyqiriqlar mantiqan hech qachon kishilarning aloqa vositasi boʻlgan emas.

Imo-ishoralar nazariyasi. Buning asoschilari nemis olimi Vundt va akademik N.Y.Marr, ularning fikricha,insonlar tovush tili paydo boʻlgunga qadar bir-birlari bilan imo-ishora orqali aloqa qilganlar.Marrning daʼvo qilishicha ,odamlar yarim million yil davomida “ imo-ishora tili”orqali aloqa qilganlar va keyinchalik bu tovush tiliga aylangan.

Inson nutqi taraqqiyotining maʼlum bir bosqichida imo-ishora tili kishilarning oʻzaro aloqa qilishlarida yagona vosita boʻlgan edi,degan fikr ilmiy jihatdan asosli emas.

Xulosa qilib aytganda,til insonlar hayotida muhim ijtimoiy hodisa hisoblanadi.Shu bilan birga til inson hayotida muhim rol oʻynaydi chunki insonlar uchun maʼlumot almashish va muloqat qilish vazifasini bajarib kelmoqda.Bundan tashqari til ishlatish odam madaniyatiga chuqur singib ketgan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

- 1.Usmonov.S, Umumiy tilshunoslik. T, 1972.
- 2,Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi(2000-2005) maʼlumotlaridan foydalanilgan.
- 3.Qambarova Dilorom Yusupovna, Tilning paydo boʻlishi va shakllanish tarixi, Fargʻona (2023).
- 4.Shuhratbek Qaxxorov ,Til – xalq tarixining solnomasi, Andijon (2022).
- 5.Azizov.O. Tilshunoslikka kirish, T. “Oʻqituvchi”, 1996.
- 6.Baskakov.N, Sodiqov.A, Abduazizov.A. Umumiy tilshunoslik, T. “Oʻqituvchi”,1979.

TEACHER'S VOICE AND TONE IN THE CLASSROOM

Omonova Gulsevar Tavakkal qizi

Faculty of English Language and Literature

Department of Foreign Language and Literature

Fergana State university

Abstract

The teacher's voice is a pivotal tool in the classroom, serving not only as a medium of communication but also as a means to establish authority, engage students, and create a conducive learning environment. This article explores the physiological, psychological, and pedagogical aspects of a teacher's voice and tone, referencing prominent works in vocal pedagogy. Special attention is given to strategies for maintaining vocal health and optimizing tone to enhance classroom dynamics.

Key words: Teacher's voice, teacher's tone, classroom dynamics, vocal health, vocal technique, voice projection, emotional communication, vocal fatigue, vocal pedagogy.

Introduction

The voice is an integral component of teaching, as teachers rely on it for instruction, guidance, and interaction. A well-modulated tone can inspire learning, while a strained or monotonous voice may hinder student engagement. Effective use of voice and tone not only requires awareness of vocal technique but also reflects a teacher's emotional state and pedagogical intentions. Drawing on studies in voice pedagogy, this article examines how teachers can optimize their vocal delivery to improve classroom outcomes.

Methodology

This study employs a qualitative approach, synthesizing insights from established literature on vocal pedagogy and complementing them with personal reflections and observations of classroom practices. In addition to foundational works by Blades-Zeller (2002), Koldenhoven (2007), Miller (1986), Vennard (1967), and Dayme (2005), the analysis includes practical experiences and challenges faced by educators in their daily teaching routines.

Results

1. The Role of Vocal Technique in Teaching

Effective voice projection and clarity are essential for maintaining authority and ensuring that all students can hear and understand the teacher.¹ From personal experience, it is evident that without proper vocal techniques, teachers often face

¹ Blades-Zeller, Elizabeth (2002). *A Spectrum of Voices: Prominent American Voice Teachers Discuss the Teaching of Singing*. Lanham, Maryland: Scarecrow Press, Inc. ISBN 0-8108-4953-4.

fatigue or lose the attention of students in larger classrooms. For instance, a teacher who consistently uses diaphragmatic breathing can maintain vocal strength and energy throughout the school day, even during lengthy lessons. This aligns with my observations where well-trained teachers manage to keep students engaged even in challenging acoustic environments.

2. Vocal Health and Maintenance

The emphasis on vocal health by Koldenhoven (2007) resonates with the reality that many teachers experience vocal strain.² Personally, I have observed colleagues struggling with hoarseness after long periods of speaking without hydration or rest. Integrating strategies such as vocal warm-ups and hydration into daily routines not only prevents fatigue but also enhances the quality of voice. Teachers who proactively care for their voices often report increased confidence and effectiveness in their delivery.

3. Tone and Emotional Communication

The works of Miller (1986) and Dayme (2005) emphasize the emotional nuances conveyed by tone, which aligns closely with my observations.³ A calm and encouraging tone fosters a positive classroom atmosphere, while a harsh tone may escalate conflicts. For example, when a teacher lowers their pitch and speaks softly during moments of tension, it often de-escalates student anxiety. This demonstrates how deliberate tone modulation can create a more harmonious learning environment.

4. Psychological Impact of Voice and Tone

Vennard (1967) asserts that consistency between verbal and nonverbal cues enhances communication, a concept that resonates deeply with classroom realities.⁴ I have noticed that students respond better to feedback when the teacher's tone matches their words. For example, a warm and genuine tone during praise reinforces students' confidence, while a firm but non-aggressive tone during discipline establishes authority without creating resentment. These observations highlight the importance of voice as a psychological tool in managing classroom dynamics.

Discussion

Teachers must approach their voice as an instrument requiring regular care and training. This study and my personal experience confirm that vocal techniques and tone modulation are not innate; they can and should be cultivated. For instance, a teacher who engages in vocal training workshops is more likely to maintain vocal resilience and emotional impact in their communication.

Moreover, the psychological effects of tone underscore the need for emotional intelligence in teaching. By intentionally adjusting tone to suit the situation, teachers

² Koldenhoven, Darlene (2007). *Tune Your Voice: Singing and Your Mind's Musical Ear*. Studio City, CA: TimeArt Publications. ISBN 978-0-9789562-3-3.

³ Miller, Richard (1986). *The Structure of Singing: System and Art in Vocal Technique*. New York: Schirmer Books. ISBN 0-02-872660-X.

⁴ Vennard, William (1967). *Singing: the Mechanism and the Technic*. New York: Carl Fischer.

can foster better relationships with students and create a more engaging learning environment. For example, in culturally diverse classrooms, understanding how tone is perceived differently can prevent misunderstandings and build trust.

Finally, integrating vocal pedagogy into teacher training programs could significantly enhance educators' effectiveness. Practical exercises, such as role-playing different vocal scenarios, can bridge the gap between theoretical knowledge and classroom application. Future research might focus on identifying specific cultural differences in voice and tone perceptions, as well as exploring the role of technology in assisting teachers to monitor and improve their vocal habits.

Conclusion

The teacher's voice and tone are more than tools of instruction; they are instruments of influence and connection. By integrating vocal health practices and intentional tone modulation, teachers can enhance their classroom presence, foster student engagement, and ensure long-term vocal well-being. This article affirms the need for ongoing professional development in vocal pedagogy for educators.

References:

1. Blades-Zeller, Elizabeth (2002). *A Spectrum of Voices: Prominent American Voice Teachers Discuss the Teaching of Singing*. Lanham, Maryland: Scarecrow Press, Inc. ISBN 0-8108-4953-4.
2. Koldenhoven, Darlene (2007). *Tune Your Voice: Singing and Your Mind's Musical Ear*. Studio City, CA: TimeArt Publications. ISBN 978-0-9789562-3-3.
3. Miller, Richard (1986). *The Structure of Singing: System and Art in Vocal Technique*. New York: Schirmer Books. ISBN 0-02-872660-X.
4. Vennard, William (1967). *Singing: the Mechanism and the Technic*. New York: Carl Fischer.
5. (Bunch) Dayme, Meribeth (2005). *The Performer's Voice*. New York: W.W. Norton & Company, Inc. ISBN 0-393-06136-1.

INGLIZ TILIDAGI TASHQI IJTIMOYIY REKLAMALARDA REGULYATIV (YO‘NALTIRUVCHI) FUNKSIYASINI QO‘LLANISHI

Baxadirov Jaxangirmirzo Abdumajitovich

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Xorijiy til va adabiyoti” kafedrası

mudiri filologiya fanlari bo‘yicha falsafa

doktori (PhD), dotsent

Ijtimoiy reklamaning **regulyativ** (yo‘naltiruvchi) funksiyasi reklama orqali axloqning istalgan va jamiyat uchun ma‘qul modellarni akutallashtirish va noma‘uql modellarining oldini olishga qaratilgandir. T.Parsonsning ta‘kidlashicha, ijtimoiy tizimni barqarorlashtirishning muhim sharti – bu odamlarning real harakatlarini ularning tegishli madaniyatda mavjud bo‘lgan axloq normalari bilan integratsiyalashdan iboratdir. Buning uchun esa, axloq namunalarini mustahkamlash, ularni o‘zaro munosabatlarda qo‘llash mumkin bo‘lgan, shuningdek sub’yektlar manfaatlariga mos bo‘lgan turg‘un va doimiy modellarga aylantirish zarur.¹ Aynan odamlarning qadriyatlarga asoslangan xulqiga, axloq me‘yorlariga ta‘sir ko‘rsatish tufayli ijtimoiy reklama jamiyat institutlarining normal faoliyat ko‘rsatishi va umuman jamiyat hayotini barqarorlashuviga yordam beradi. Mazkur funktsiya shaxsning ijtimoiy ahamiyatli va ijtimoiy foydali harakatlar sodir etishga undash va nomaqbul harakatlarining oldini olish vazifasini bajaradi. Regulyativ xarakterdagi matnlar asosida sub’yektlar o‘rtasida muayan bir sharoit va vaziyatda ma‘lum munosabatlarni o‘rnatuvchi ijtimoiy xulq me‘yorlari yotadi, ya‘ni: 1) muayan vaziyatdagi sub’yekt; 2) xulq (axloq me‘yorlari, urf-odat, an‘ana yoki xulq huquqi bilan belgilangan); 3) modallik (sub’yektlar o‘rtasidagi munosabatlar va xulq bilan belgilangan); 4) ommaning jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq normalarining buzilishiga, shuningdek, huquqiy oqibat keltirib chiqaruvchi harakatlarga munosabati. Ijtimoiy axloqiy me‘yorning taqdim qilingan mazkur sxemasi umumiy universal xarakterga ega va ijtimoiy reklamali plakatlarda me‘yoriy va qadriyatlar bilan bog‘liq matnlarni tahlil qilishda samarali nazariy vosita hisoblanadi. Ijtimoiy me‘yor sxemasi elementlarini taqdim etishning mantiqiy-sintaksik shakli sifatida *basharti..., agar..., aks holda...*, kabi so‘zlar yordamida bayon etilgan izchillikni misol ko‘rsatish mumkin, bu yerda qadriyat va me‘yorlarni zaruriy ehtiyojga aylantirish shartiga (vaziyatga), keyin xulq qoidalari bayoniga (dispozisiya) va nihoyat bu qoidalarga amal qilinmaslik natijasiga (jazo) ko‘rsatma berilgan. Ijtimoiy normalar albatta shartli jumlar bilan ifodalangan bo‘lishi va u bir jumlaning o‘zida aks etilishi shart emas, ammo ijtimoiy-regulyativ xarakterdagi plakatlar matnining talqini uning elementlarini aniqlashga imkon beradi.

¹ Парсонс, Т. Очерк социальной системы / Парсонс, Т. – М.: Академ. Проект, 2002. – 832 с.

Masalan, quyidagi reklamali murojaatda: *Throat cancyer will leave you speyechless. Quit smoking* – Tomoq raki seni tilsiz qilib qo‘yadi. Chekishni tashla ko‘rsatmasi yana boshqacha variantda ifodalanishi mumkin, ya‘ni: *If you do not quit smoking, throat cancyer will leave you speyechless* – Agar chekishni tashlamosang, tomoq raki seni soqov qilib qo‘yadi. Mazkur holda vaziyat sub‘yekti sifatida nikotinga qaramlikdan ozor chekayotgan odam ko‘rsatilgan bo‘lib, dispozisiya sifatida zararli odatdan voz kechish ko‘rsatmasi berilgan bo‘lsa, jazo sifatida – ayanchli natija berilgan. Yana boshqa bir murojaatni tahlil qilamiz: *“Neglected children are made to feyel invisible* – Nazorasiz qoldirilgan bolalar o‘zlarini ko‘zga ko‘rinmas maxlukdek his qiladilar”. Mazkur holatda sub‘yekt sifatida ota-onasi tarbiyasi bilan shug‘ullanishga vaqti bo‘lmagan bola ko‘rsatilgan. Jazo sifatida bayon etilayotgan vaziyatning negativ oqibatlarini namoyon bo‘lgan: agar bola nazorasiz qoldirilsa, u o‘zini ko‘rinmas maxlukdek his qiladi. Uning semantik xulosasi ko‘rsatma sifatida namoyon bo‘lgan – bolalaringizni e‘tiborsiz qoldirmang, quyidagicha berilgan: *If you neglect your children, you make them feyel invisible.*

Regulyativ funktsiya o‘z aksini ijtimoiy reklamani tarkibiy-kompozitsion tashkillashtirishda topadi. Uning tarkibiy qismlari sloganlar (murojaatlar) va vizual obrazlar (rasmli) orqali taqdim etilgan bo‘ladi. Slogan, ya‘ni mazkur holatda *murojaatlar* reklama matnining eng muhim elementi sanaladi. Mazkur termin etimologik jihatdan vallyiy tilidagi “slaugh-ghairm” (jangovor chaqiriq) so‘zidan kelib chiqqan va emosional jihatdan ta‘sirchan bo‘lishi bilan bir qatorda keskin harakatga undov ma‘nosini ham beradi. Odatda murojaatlarga argument (dalil) sifatida ijtimoiy muammoni taqdim etuvchi, u yoki bu harakatlarni sodir etishga undovchi matnli fragmentlar ilova qilinadi. Murojaatga rekalam kompaniyasining o‘ziga xosligini ta‘minlash vazifasi qiradi. Murojaat reklama kompaniyasining “qisqa mazmunini” ifoda etadi.

Slogan mualliflari reklamali xabarni maksimal darajada lo‘nda ifodalashga xarakter qilishadi, bu esa o‘z navbatida xabar va murojaatlarni qisqa va esda qolarli bo‘lishini ta‘minlaydi. Reklama kompaniyasini mazmun-mohiyatini adresatga aniq yetkazish va unga emosional ta‘sir ko‘rsatish uchun turli tasvirlar va stilistik usullar qo‘llaniladi. Ularning ichida eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri – qofiya va alliteratsiya, ya‘ni bir xil yoki ohangdosh undoshlarning ketma-ket qaytarish usulidir. Misol sifatida *“After whisky, driving risky – Viski ichish va moshina haydash – o‘ta qaltis ish”*, sloganini keltirish mumkin. Ingliz tilining o‘ziga xos xususiyatlari, uning so‘z yasashdagi imkoniyatlari mustaqil va ta‘sirchan sloganlarni yaratishga xizmat qiladi. S. de Madariaga bu haqda hazil qilib shunday degan edi, “ingliz tili – serharakat odamlar tili, bir bo‘g‘inli, qisqa va lo‘nda til. Faol va serharakat odam bugungi kun bilan yashaydi, bugungi kun uchun esa, bir bo‘g‘inli so‘zlardan boshqa so‘zlarga o‘rin yo‘q. Bir bo‘g‘inli va lunda so‘zlarda ingliz xarakterining barcha hislatlari ishtirok

etadi, masalan, utilitar, ya'ni amaliy-pragmatik his-tuyg'ular. Pragmatik va aql-idrokka tayanib ish ko'radigan ingliz perambulator (sayyoxatchi, yo'lovchi) so'zini pram, omnibus (omnibus, avtobus) so'ziga va bus i bicycle (velosiped) so'zini bike so'ziga osonlikcha o'zgartirib ishlatishi mumkin. Bu masalada unga shakllarga bo'lgan befarq munosabat yordam beradi"². Tabiatan serharakat bo'lishga moillikni S.de Madariaga ingliz tilining barcha so'zlarni fe'llarga almashtira olish xususiyati bilan bog'liq deb hisoblaydi.

Ijtimoiy plakatning illyustrativ, ya'ni tasvir qismi uning eng muhim tarkibiy qismlaridan iboratdir. Negaki, rasm va jozibali tasvirlar, birinchi navbatda kishi e'tiborini o'ziga tortadi. Shunday esa-da, har qanday tasvir aksariyat hollarda o'ziga izohli matn talab etadi: matn tasvirning kommunikativ hususiyatini kuchaytiradi. Reklama san'atida matn yanada ishonchli va aniq bo'lishi uchun ko'pincha fotosuratlar ishlatiladi hamda dolzarb muammolarni aks ettirishda ushbu muammolarni boshidan kechirgan odamlar tasviridan ham keng foydalaniladi. Bu esa, adresatda voqelikka dahldorlik hissini uyg'otadi va fotosuratda tasvirlangan qahramonning muammosiga qayg'udosh bo'lishga undaydi. Shu bilan birga fotosuratlar maxsus maqsadni faqat izohlash, talqin etish funksiyasini bajaradi, izohlash jarayoniga esa adresatning hayotiy tajribasi va madaniy muhit ta'sir ko'rsatishi mumkin. Fotosuratda turli ramzlar ishlatiladi va ijtimoiy reklamadagi obrazni to'g'ri talqin etishda mazkur ramzlar auditoriya uchun yaxshi tanish va u tushunadigan darajada bo'lishi lozim.

Rekalmaning ma'umot olish uchun aloqa qismi reklama beruvchilar haqidagi axborotdan iborat bo'ladi (tashkilotlar, fondlar, hokimiyat organlari va hokazolar). Masalan, Nyu-York sog'liqni saqlash Departamentining qand kasalligiga qarshi kurashga bag'ishlangan reklama plakatida oyog'i amputatsiya qilingan odamning fotosurati berilgan. Fotosuratda haddan tashqari ko'p shakar iste'mol qilgan odamning ayanchli oqibati tasvirlangan. Reklama slogani: "Cut your portions, cut your risk – Miqdorni kamaytir, xatarni yo'qot!" NYC Health Department. "Portions have grown. So has type 2 diabetes, which can lead to amputations – Miqdor ko'paymoqda. Agar sizda ikkinchi darajali qand kasalligi bo'lsa, bu amputatsiyaga olib kelilish mumkin". Bu reklamada imperativ, ya'ni buyruq-ko'rsatma berilib, u asoslangan axborot bilan izohlanmoqda.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Парсонс, Т. Очерк социальной системы / Парсонс, Т. – М.: Академ. Проект, 2002. – 832 с.
2. Мадариага, С. Англичане, французы, испанцы. / С. Мадариага. – СПб: Наука, 2003. – 248 с.

² Мадариага, С. Англичане, французы, испанцы. / С. Мадариага. – СПб: Наука, 2003. – 248 с.

URBANIZATSIYANING FALSAFIY MUAMMO SIFATIDAGI TAHLILI

Yaxshiboyeva Muhayo G'ulom qizi

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi,

Ilmiy rahbar: Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich

Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Urbanizatsiya (lotincha-Urbanius) shaharlar taraqqiyoti bilan bog'liq hayot tarzini ifodalovchi tarixiy jarayon bo'lib, aholining hududlar doirasida joylashishida shaharlar soni, ularning katta-kichikligini aniqlash va insoniyat hayotining turli jabhalarida shaharlarning rolini oshirish bilan bevosita aloqador bo'ladi. Urbanizatsiya darajasining yuqoriligi shaharlar soni va ularda istiqomat qiluvchi aholining ko'p-ozligi bilan belgilanadi, ishlab chiqarish kuchlarining hududlar bo'ylab joylashishidagi va ijtimoiy taraqqiyot, madaniyat, fan, san'at kabi sohalardagi ahvol va o'zgarishlarni ifodalaydi. Maqolada urbanizatsiyaning hozirgi kundagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Urbanizatsiya, shaharlar taraqqiyoti, global jarayon, urbanizatsiya darajasi, urbanizatsiya darajasi yuqori mamlakatlar, klassik urbanizatsiya, sharqona urbanizatsiya.

Kirish. Urbanizatsiya hozirgi davrda jahon miqiyosida tobora rivojlanib, kuchaya borayotgan turli xil ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot darajasi turlicha bo'lgan mamlakatlarni o'z domiga tortgan urbanizatsiya XVIII asrda ro'y bergan sanoatdagi inqilob tufayli tobora kuchaya bordi. XIX asrga kelib yer yuzida mavjud bo'lgan shaharlarda salkam 30 million aholi yashagan bo'lib, u butun aholi orasida bor-yo'g'i 3 foizni tashkil etgan edi. Urbanizatsiyaning eng asosiy xususiyati shaharlarning kompleks, ya'ni ularning har tomonlama rivoj topishini taminlash, moddiy va ma'naviy imkoniyatlarini ko'paytirishi, aholi migratsiyasining kuchayishi, yangi shaharlar vujudga keltirishi va ularni taraqqiyot tomon yo'naltirishi, yirik shaharlar sonini oshirish, ularda yashaydigan aholi sonini ko'paytira borishdan iborat.

MUHOKAMA. Ma'lumki, urbanizatsiya - bu shaharlar va shahar aholisining o'sishi, shahar turmush tarzining keng tarqalish jarayonidir. Shaharlar eng qadimgi davrlarda vujudga kelib, qishloqlar bilan birgalikda aholi manzilgohlarining ikkita asosiy turidan birini tashkil qiladi. Shaharlar tarixan ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida paydo bo'lgan va rivojlangan. Qadimgi davrlarda shaharlar hunarmandchilik, savdo-sotiq, ma'muriy boshqaruv, mudofaa ishlari, diniy ibodatxona va ziyoratgohlar negizida vujudga kelgan. Tarixdan ma'lumki, bir necha ming yillar avval yer yuzida Fiva, Bobil (Vavilon), Ur, Afina, Rim, Iskandariya, Karfagen, Moxenjo-Daro, Samarqand (Maroqand) kabi yirik shaharlar mavjud bo'lgan.

Ammo haqiqiy shaharlashuv jarayoni qizg'in sur'atlar bilan faqat XIX asrda, dastlab Yevropada, keyinchalik esa Shimoliy Amerikada boshlanadi. Bu hodisa G'arb davlatlarida o'sha paytda ro'y bergan sanoat inqilobining natijasi bo'ldi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida urbanizatsiya jarayonlari XX asrning o'rtalarida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi ijobiy o'rganishlar tufayli boshlanadi va hozirgi kungacha yuqori sur'atlar bilan davom etmoqda.

Urbanizatsiya jarayoni ilmiy-texnik taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Uning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Shunga ko'ra, urbanizatsiya bilan bog'liq bo'lgan muammolar hozirgi davrning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanganligini eslatib o'tish maqsadga muvofiq. Urbanizatsiya bilan bog'liq bo'lgan muammolarni turli fanlar o'rganadi. Bu muammolarni chuqur o'rganish, tahlil qilish faylasuf, iqtisodchi, geograflar, aholishunoslar, sotsiologlar, me'morlar, ruxshunoslar, tibbiyot xodimlari va boshqa soha vakillarining keng ko'lamda tadqiqodlar olib borayotganligi shundandir.

Urbanizatsiya jarayonida shaharlar soni, ayniqsa, yirik shaharlar, shu jumladan, aholisi millondan oshgan shahar soni tez ko'paya boradi. Shahar aglomeratsiyalari (urbanizatsiya kuchaygan ulkan hududlar), megapolislar (aholi manzillari, ayniqsa shaharlar ko'payishi) aholining qishloqlardan shaharlarga ko'chib kelish jarayonini kuchaytirildi.

Urbanizatsiya jarayoni jahon ahamiyatiga molik global jarayon sifatida qator umumiy belgilar va qonuniyatlariga ega jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi.

Urbanizatsiya shaharlarda o'ziga xos turmush tarzini vujudga keltiradi, odamlar orasidagi munosabatlarga yo ijobiy, yoxud salbiy ta'sir ko'rsatadi, aholi o'rtasida turli xil kasb-hunarlar paydo bo'lishiga olib keladi, kishilarning ijobiy faolligini kuchaytiradi, ilm-fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Uning yetakchi omillaridan biri – fan-texnika taraqqiyoti aholining hududlar bo'yicha ma'lum darajada tekis joylashishi, shaharlarning moddiy va ma'naviy boyliklaridan jamiyat manfaati yo'lida to'laroq foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi.

Fan-texnika taraqqiyoti urbanizatsiya jarayoniga katta ta'sis ko'rsatishi bilan birga bu jarayonni yanada tezlashtiradi hamda urbanizatsiya darajasi yurori bo'lgan joylarda istiqbol rejaları uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar va omillar vujudga keltiradi. Muhim sifat o'rganishlari milliy iqtisod samardorligini yuksaltirishdagi eng asosiy vosita bo'lgan sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirishga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Urbanizatsiya jarayonida aholining shaharlardan qishloqlarga ko'chib kelishi ko'paya boradi. Bu urbanizatsiyaga xos xususiyatdir. Uning boshqa o'ziga xos xususiyati - ma'lum aholi manzillarida, ayniqsa yirik shaharlarda turli sanoat korxonalarining, o'quv yurtlarining, ma'daniyat va san'at obidalarining tez

ko'payishidir. Ma'lumki, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan korxonalarining muayyan bir joyda to'planishi fan-texnika taraqqiyoti tizimi bilan qo'shilgan holda xalq xo'jaligi tarkibini o'zgartirib yuboradi va uni murakkablashtiradi. Sanoat korxonalarining bir joyga jamlanishi qonuniyatining amalga oshishi sanoat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan turli xil faoliyatlar uyg'unligida shaharlarning tez taraqqiy etishiga sharoit yaratadi hamda bu shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi yetakchi roli va o'rnini belgilab beradi.

Xalqaro miqiyosda qabul qilingan mezonga ko'ra, urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoriga aholisi 100 mingtadan ortiq bo'lgan shaharlarda aholining uchdan bir qismi yashaydigan mamlakatlar kiradi.

Urbanizatsiya jarayoni 3 ta asosiy bosqichdan o'tib rivojlanadi.

I. Shakllanayotgan urbanizatsiya bosqichida shahar aholisining ulushi 50% dan past bo'lib, yangi shaharlar vujudga keladi, ayrim qishloq joylar shahar manzilgohlari toifasiga o'tib ketadi. Ayniqsa, yirik shaharlar tez o'sishni boshlaydi. Bunda eng yirik shaharlar boshqalarga nisbatan ancha ilgarilab ketadi. Eng yirik shaharlarning o'sishi ayrim hollarda "soxta" urbanizatsiya tarzida, ya'ni shahar chekkalarida qishloqdan ko'chib kelgan past daromadli aholi uy-joylarining zichlashib borishi ko'rinishida kechadi. Hozirda Osiyo va Afrikadagi qator rivojlanayotgan mamlakatlar urbanizatsiyaning ana shu bosqichini kechirmoqdalar.

II. Rivojlangan urbanizatsiya bosqichi "millioner" shaharlarning yuqori sur'atlar bilan o'sishi hamda yirik shaharlar atrofida aglomeratsiyalarning vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. Shaharlarning jami aholidagi ulushi 50 % dan ortib ketadi, yangi shaharlar deyarli vujudga kelmaydi, mavjud shaharlar esa, ayniqsa, yiriklari tez rivojlanadi, shahar manzilgohlarining tizimlari shakllanib boradi. Urbanizatsiyaning bu bosqichi Sharqiy Yevropa, MDH davlatlari, Lotin Amerikasi, Shimoliy Afrika, Janubiy-g'arbiy Osiyo, Okeaniyadagi ko'p mamlakatlarga xos.

III. Yetuk urbanizatsiya bosqichi Yevropaning eng rivojlangan davlatlari, AQSH, Kanada, Avstraliya, Yaponiya, Isroilda kuzatilmoqda. Bunda aholi yirik shaharlarning markazlaridan asta-sekin shahar artofiga ko'chib boradi, lekin shaharlarda ishlash, o'qish, turli faoliyat yuritishni davom ettiradi. Natijada shaharlar markazlari, asosan, tadbirkorlik, bank-moliya sektori, boshqaruv sohalarining rivojlanish maskanlariga aylanib, aholi yashash massivlari esa tobora markazdan uzoqlashib boraveradi. Bunday ijtimoiy geografik jarayon suburbanizatsiya deb ataladi. Transport va aloqaning zamonaviy texnologiyasi rivojlangan sari urbanizatsiyaning bu bosqichida shahar iqtisodiyoti tarmoqlari va shahar turmush tarzi qishloq joylarda ham keng tarqalib boradi, natijada shahar va qishloqlardagi yashash sharoiti tobora yaqinlashadi, ya'ni, qishloq joylar rasman o'zining qishloq maqomini saqlab tursa-da, tub ma'noda shaharlashib ketadi. Shahar bilan qishloq joylar orasidagi

ijtimoiy-iqtisodiy farq va chegaralarning yo‘qolib borish jarayoni rurbanizatsiya atamasi bilan yuritiladi.

Demak, jahon mamlakatlarida urbanizatsiya jarayoni turli bosqichlarda rivojlanib bormoqda va bu, birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Yevropa, Shimoliy Amerika, Lotin Amerikasi, Avstraliya va Okeaniya kabi yirik mintaqalardagi davlatlarda urbanizatsiya ko‘rsatkichi o‘rtacha hisobda 70 foizdan oshgan. Bu borada, ayniqsa, Iskandariya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Niderlandiya, Avstraliya, Yangi Zellandiya, Argentina, Venesuala kabi shaharlashuv darajasi 90 foizdan yuqori bo‘lgan davlatlar ko‘zga tashlanadi.

Jahon urbanizatsiyasining hozirgi bosqichida xalqaro savdo-iqtisodiy va bank-moliya munosabatlari rivojlanishi, transmilliy korporatsiyalar faoliyati doirasining kengayishi, zamonaviy transport va aloqa tarmoqlari vujudga kelganligi hisobiga ayrim juda yirik shaharlarning ta’sir doirasi joylashgan davlati bilan chegaralanib qolmasdan, boshqa mamlakat va mintaqalar, bazan esa jahonni qamrab olmoqda. Bunday shaharlarning aholisi soni bir necha million kishiga teng bo‘lib, yirik transmilliy korporatsiyalar va xalqaro tashkilotlar qarorgohlari, dunyodagi eng yirik potr, sanoat korxonalari, bank, moliyaviy jamg‘arma va birjalar joylashganligi bilan boshqa shaharlardan ajralib turadilar. Shu toifadagi shaharlarga nisbatan global (yoki jahon) shaharlari atamasi qo‘llanadi. Global shaharlar qatoriga, eng avvalo, Nyu-York, London, Tokio, Shanxay, Gonkong, Parij, Dubay, Singapur kabi savdo-moliyaviy va transport salohiyati o‘ta katta shaharlar kiradi. Global shaharlar safi borgan sari kengaymoqda, ularning ta’sir doirasi esa barcha qit’a va ularning yirik qismlarini qamrab olishga intilmoqda.

XULOSA

Hozirgi kunda urbanizatsiya jahonda aholi soni ko‘payib borgani sari shaharlar ham tez sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. Lekin urbanizatsiyaning rivojlanishi bir qator salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda atrof-muhit ifloslanishining asosiy omili va inson salomatligiga ta’siri jismoniy faolligining kamayishi, ovqatlanishning noratsional bo‘lishi, sifatsiz mahsulotlarning semirish va diabetga olib kelishi, yurak-qon tomiri kasalliklarining rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Shahar tizimini yaratish orqali o‘z atrofida hayotning qulayligini oshiradigan sun’iy muhit yaratadilar. Ammo bu odamlarni tabiiy muhitdan ajratadi va tabiiy ekotizimlarni buzadi. Urbanizatsiya jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas qismi va ularning bevosita hosilasi bo‘lib, qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bu muammolarning qamrovi keng bo‘lib, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, tibbiy, madaniy, ma’naviy-axloqiy jihatlari bilan tavsiflanadi. Bunda suv ta’minotidagi kamchiliklar, transport tarmoqlariga me’yoridan ortiq yuk tushayotgani, shahar turmush tarzi bilan bog‘liq kasalliklarning tarqalishi, jinoyatchilikning ortishi va boshqa muammolar dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sh.M.Sharipov, V.N.Fedorko, N.I.Safarova, V.A.Rafiqov. Amaliy geografiya-T.; 2017.
2. Akbarjonovich M. A. MIGRATSIYA JARAYONINING TAHLILI VA MUAMMOLI JIHATLARI //IQRO JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 628-631.
3. Abdulaziz M. MIGRATSIYA TUSHUNCHASINING TAHLILI VA UNING MUAMMOLI JIHATLARI //Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 32-34.
4. MANSUROV A. Development stages of migration from a historical point of view //UzMU xabarlari. – 2024. – T. 1. – №. 1.1. – C. 108-111.
5. Akbarjonovich M. A. Historical Analysis of Population Migration //International Journal on Orange Technologies. – 2023. – T. 5. – №. 4. – C. 68-70.

UCH O'LCHOVLI FRAKTAL TUZILISHLI OBYEKTLAR

Asatullayev Javoxur Asqad o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

asatullayevjavohir1997@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola uch o'lchovli fraktal tuzilishli obyektlarning matematik asoslari, hosil qilish usullari va amaliy qo'llanilishi haqida ma'lumot beradi. Fraktal geometriyaning ilmiy va texnologik sohalardagi o'rni, shuningdek, tabiiy jarayonlarni modellashtirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Fraktallarning estetik va funksional imkoniyatlari zamonaviy texnologiyalar rivojlanishiga ta'sir qilishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar. fraktal, uch o'lchovli geometriya, matematik modellashtirish, tabiiy jarayonlar, kompyuter grafikasi, Menger g'alviri, fraktal o'lchov.

Аннотация. В данной статье представлена информация о математических основах, методах создания и практическом применении объектов с трехмерной фрактальной структурой. Анализируется роль фрактальной геометрии в научной и технологической областях, а также ее значение при моделировании природных процессов. Подчеркивается, что эстетические и функциональные возможности фракталов влияют на развитие современных технологий.

Ключевые слова. фрактал, трехмерная геометрия, математическое моделирование, природные процессы, компьютерная графика, диаграмма Менгера, фрактальная размерность.

Abstract. This article provides information on the mathematical foundations, methods of creation and practical application of objects with three-dimensional fractal structures. The role of fractal geometry in scientific and technological fields, as well as its importance in modeling natural processes, is analyzed. It is emphasized that the aesthetic and functional capabilities of fractals affect the development of modern technologies.

Keywords. fractal, three-dimensional geometry, mathematical modeling, natural processes, computer graphics, Menger's curve, fractal dimension.

Fraktallar — geometriyaning zamonaviy sohalaridan biri bo'lib, o'z-o'zini takrorlaydigan va murakkab tuzilmalarni tavsiflaydi. Ushbu tuzilmalar tabiatdagi ko'plab obyektlarni modellashtirishda va matematik tahlilda keng qo'llaniladi. Uch o'lchovli fraktallar esa ushbu nazariyaning kengaytirilgan ko'rinishi bo'lib, murakkab tuzilmalarning matematik ifodasi va fizik o'lchovlardagi izohidir[1,2].

Fraktallarni matematik tahlil qilish quyidagi asosiy nazariyalarga tayanadi:

1. **O‘z-o‘zini takrorlash xususiyati:** Fraktal tuzilmalar o‘zining har bir qismida asosiy tuzilmani takrorlaydi.

2. **Kasr sonli o‘lcham:** Fraktal obyektlar geometrik o‘lchamlar (1D, 2D yoki 3D) bilan chegaralanmaydi; ular fraktal o‘lcham (masalan, 2,5 yoki 2,7) bilan tavsiflanadi.

3. **Iteratsion jarayonlar:** Har bir fraktal tuzilmalar takrorlanadigan matematik operatsiyalar asosida hosil bo‘ladi, bu esa cheksiz murakkablikka olib keladi[2,4].

Misol sifatida Mandelbrot va Julia to‘plamlarining uch o‘lchovli variantlarini keltirish mumkin.

Fraktallarni uch o‘lchovli fazoda yaratish usullari quyidagilardan iborat:

1. **Geometrik transformatsiyalar:** Sierpinski piramidasini va Menger g‘alviri kabi geometrik fraktallarni iteratsion jarayonlar orqali hosil qilish.

2. **Matematik modellashtirish:** Maxsus tenglamalardan foydalanib uch o‘lchovli shakllar yaratish. Masalan, kvaternion va hiperkvaternionlar asosida fraktallarni hisoblash.

3. **Kompyuter algoritmlari:** Uch o‘lchovli grafik dasturlar yordamida fraktal tuzilmalarning interaktiv modellarini qurish[3].

Tabiatda uchraydigan ko‘plab obyektlar fraktal tuzilmalarga ega. Masalan:

• **Daraxtlar va ildiz tizimlari:** Ushbu tuzilmalar o‘z-o‘zini takrorlash printsipli asosida rivojlanadi.

• **Bulutlar va tog‘ tizimlari:** Geometrik fraktallar orqali simulyatsiya qilinadi.

• **Qon tomirlari va asab tizimi:** Biologik fraktallar yordamida tahlil qilinadi.

Fraktal modellar nafaqat tabiiy jarayonlarni tushunishga, balki ularni kompyuter texnologiyalarida qayta yaratishga yordam beradi[3,4].

Uch o‘lchovli fraktallar zamonaviy ilmiy va texnologik sohalarda keng qo‘llanilmoqda:

1. **Arxitektura va dizayn**

Fraktallar yordamida murakkab va estetik jihatdan jozibador binolar loyihalanmoqda. Masalan, "Fraktal minora" kontseptsiyasi zamonaviy arxitekturadagi innovatsiyalardan biridir.

2. **Kompyuter grafikasi va animatsiya**

Fraktal texnologiyalar yordamida realistik virtual muhitlar va maxsus effektlar yaratiladi. Bu jarayon o‘yinlar va kino sanoatida keng qo‘llaniladi.

3. **Tibbiyot va biologiya**


Fraktal geometriya yordamida organizmning murakkab tuzilmalarini o‘rganish va patologiyalarni aniqlash imkoniyatlari kengaymoqda.

4. **Astronomiya va geologiya**

Koinotdagi yulduz tizimlari va yer yuzasidagi landshaftlarni tadqiq qilishda fraktallar samarali vositadir[5].

Menger g'alviri: Uch o'lchovli fraktallarga misol

Menger g'alviri uch o'lchovli fraktal obyekt bo'lib, oddiy geometrik shaklni iteratsiya orqali murakkablashtirish asosida hosil qilinadi. Har bir iteratsiyada kubning ichki qismi chiqarib tashlanadi va yangi kichik kublar hosil qilinadi. Bu jarayonni cheksiz davom ettirish nazariy jihatdan cheksiz murakkab tuzilmani hosil qiladi.



Ushbu grafik tasvir uch o'lchovli Menger g'alvirini ifodalaydi. Bu fraktal obyekt kub shakli asosida hosil bo'lib, iteratsiyalar orqali o'zining murakkab va o'z-o'zini takrorlaydigan strukturasi yaratadi. Tasvir maqoladagi tushunchalarni vizualizatsiya qilishda yordam beradi[7].

Xulosa.

Uch o'lchovli fraktallar ilmiy tadqiqotlar, texnologiyalar va san'at sohalarida katta istiqbolga ega. Ularning qo'llanilishi tabiatni chuqurroq tushunish, yangi texnologik yechimlarni yaratish va virtual olamni rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda fraktallar yordamida kashf qilinadigan innovatsiyalar yanada kengroq imkoniyatlar ochishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.A.Anarova, F.M.Nuraliev, O.M.Narzulloev Construction of the equation of fractals structure based on the rvachev R-functions theories. 1260 (2019) 102002.
2. **Peitgen, H.-O., Jürgens, H., Saupe, D.** Chaos and Fractals: New Frontiers of Science. Springer, 2004.
3. **Barnsley, M. F.** Fractals Everywhere. Academic Press, 2000.
4. **Falconer, K.** Fractal Geometry: Mathematical Foundations and Applications. Wiley, 2014.

5. Mandelbrot B. «Fraktalnaya geometriya prirodi». Moskva - Ijevsk: Institut kompyuternix issledovaniy. 2002 g., -656 str
6. Belenkaya N.L., Sergeyev L.O. Fraktali. // Informatika (priloj. k "Pervoye sentyabrya"). Moskva: 2000. - №30.
7. Azayevich A.I. Fraktali: geometriya i iskustvo. «Matematika v shkole». Moskva: 2005. - №4.
8. K.A.Papov. Vektori, fraktali i kompyuternoye modelirovaniye. «Matematika v shkole». Moskva: 2006 - №8.
9. V.S.Sekovanov. Geometricheskaya progressiya i geometriya fraktalov. «Matematika v shkole». Moskva: 2006 - №8.
10. A.A.Potapov. Fraktali, kaos rekursiya. «Vissheye obrazovaniye segodnya». Moskva:2003 - №4.
11. **L. Pietronero**. Fractals and the Physics of Complex Systems. Physics Reports, 1987.
12. **Schroeder, M.** Fractals, Chaos, Power Laws: Minutes from an Infinite Paradise. Freeman, 1991.
13. Fractal Foundation
14. Mandelbulb 3D Software

UNIVERSITET FAOLYATI SAMARATORLIGINI BAHOLASHDA REGRESSION MODELINING TAHLILI

Tojiboyev I.T.¹, Xodjimurotova Z.A.²

¹*Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston:*

[*ibroxim@gmail.com*](mailto:ibroxim@gmail.com)

²*Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston:*

[*xodjimurotovaz@gmail.com*](mailto:xodjimurotovaz@gmail.com)

Universitet faoliyatini matematik modellar yordamida tahlil qilishning regression modelidan foydalanishni ko'rib chiqamiz. Regression tahlili universitet faoliyatining turli ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun keng qo'llaniladigan usuldir. Ushbu usul yordamida o'zgaruvchilar orasidagi munosabatni modellashtirish, kutilayotgan natijalarni oldindan taxmin qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtiriladi.

Regression modeli umumiy

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \dots + \beta_n X_n + \varepsilon$$

ko'rinishda yoziladi, bu yerda Y – natijaviy (dependent) o'zgaruvchi yoki model orqali taxmin qilinadigan ko'rsatkich (masalan, universitetdagi talabalar o'qishidagi muvaffaqiyat darajasi), X_1, X_2, \dots, X_n – tushuntiruvchi (independent) o'zgaruvchilar, ya'ni Y ni tushuntiruvchi omillar (masalan, darslarga qatnashish darajasi va talabalar qoniqishi), β_0 – doimiy koeffitsient (intercept) bo'lib, bu qiymat X_1, X_2, \dots, X_n qiymatlari nol bo'lganda Y qiymatini ifodalaydi, $\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_n$ – regressiya koeffitsientlari bo'lib, ular har bir tushuntiruvchi o'zgaruvchining Y ga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi, ε – tasodifiy xatolik, ya'ni modelda tushuntirilmagan o'zgarishlar.

Masalan, universitetdagi talabalar o'qish muvaffaqiyati (Y) bilan ular darslarga muntazam qatnashishi (X_1) va psixologik qoniqish darajasi (X_2) o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rib chiqaylik

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \varepsilon,$$

bu yerda Y – talabalar o'qish muvaffaqiyati (masalan, o'rtacha baholari), X_1 – darslarga qatnashish darajasi (foizda), X_2 – talabalar psixologik qoniqish darajasi (masalan, qoniqishning 1 dan 10 gacha bo'lgan shkalasi bo'yicha).

Regressiya modeli yordamida universitetdagi talabalar o'qish muvaffaqiyati (Y) bilan darslarga qatnashish darajasi (X_1) va psixologik qoniqish darajasi (X_2) o'rtasidagi bog'liqlikni to'liq hisoblashlar orqali tushuntirib chiqaylik. Bu jarayonda eng kichik kvadratlar usuli yordamida koeffitsientlarni hisoblaymiz va modelni baholaymiz.

Boshida quyidagi ma'lumotlar jadvalni ko'rib chiqaylik

Talaba	Darslarga qatnashish darajasi (X_1)	Psixologik qoniqish (X_2)	O'qish natijalari (Y)
1	85	8	78
2	90	7	82
3	75	6	70
4	80	7	75
5	92	9	85

Ushbu masalani yechish uchun dastlab regressiya tenglamasi shakllantiramiz

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \varepsilon,$$

bu yerda β_0 , β_1 va β_2 – koeffitsientlar.

Koeffitsientlarni hisoblash uchun quyidagi formulalar ishlatiladi:

$$\hat{\beta}_1 = \frac{n \sum (X_1 \cdot Y) - \sum X_1 \sum Y}{n \sum X_1^2 - (\sum X_1)^2}, \quad \hat{\beta}_2 = \frac{n \sum (X_2 \cdot Y) - \sum X_2 \sum Y}{n \sum X_2^2 - (\sum X_2)^2},$$

$$\hat{\beta}_0 = \bar{Y} - \hat{\beta}_1 \bar{X}_1 - \hat{\beta}_2 \bar{X}_2,$$

bu yerda \bar{Y} – Y o'zgaruvchisining o'rtacha qiymati, \bar{X}_1 – X_1 o'zgaruvchisining o'rtacha qiymati, \bar{X}_2 – X_2 o'zgaruvchisining o'rtacha qiymati, n – kuzatuvlar soni.

Avval X_1 , X_2 va Y qiymatlarining o'rtachasini hisoblaymiz

$$\bar{X}_1 = \frac{85 + 90 + 75 + 80 + 92}{5} = 84.4;$$

$$\bar{X}_2 = \frac{8 + 7 + 6 + 7 + 9}{5} = 7.4;$$

$$\bar{Y} = \frac{78 + 82 + 70 + 75 + 85}{5} = 78.$$

Quyidagi qiymatlar asosida eng kichik kvadratlar usulidan foydalanib koeffitsientlarni hisoblaymiz:

1. $\hat{\beta}_1$ ni hisoblash:

$$\hat{\beta}_1 = \frac{5 \cdot (85 \cdot 78 + 90 \cdot 82 + 75 \cdot 70 + 80 \cdot 75 + 92 \cdot 85)}{5 \cdot (85^2 + 90^2 + 75^2 + 80^2 + 92^2) - (85 + 90 + 75 + 80 + 92)^2} - \frac{(85 + 90 + 75 + 80 + 92) \cdot (78 + 82 + 70 + 75 + 85)}{5 \cdot (85^2 + 90^2 + 75^2 + 80^2 + 92^2) - (85 + 90 + 75 + 80 + 92)^2};$$

2. $\hat{\beta}_2$ ni hisoblash:

Kompetentli yondashuv yagona ta‘lim jarayonini ta‘minlashning konseptual asosi sifatida taqdim etiladi. Shuning uchun ham u bugungi kunda ta‘lim mazmunini yangilashni taqozo qilmoqda. O‘tgan asrning 90-yillaridayoq, kompetentlilik tushunchasi, bir tomondan yangi kashfiyotlar va ishlanmalarni muvofiqlashtirish imkonini berib, insonning bilish faoliyati va amaliy harakatlariga taalluqlidir. Ikkinchi tomondan esa, har bir sinfda pedagogik vaziyat bilan bog‘liq holda ta‘limiy talablarni aniqlashga ko‘maklashadi, deb yozgan edi H.C.Pozov [1]. Kompetentlik tushunchasi so‘nggi yillarda asosan kasbiy ta‘lim sohasidagi tadqiqotlarda keng qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, S.T.Turg‘unov, M.B.Ma‘murov, O‘.Q.Tolipov, Sh.Q.Mardonov, G.T.Boymurodova, G.N.Ibragimovalarning ishlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasiga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etishning ayrim masalalari tadqiq etilgan. Kompetensiyaviy yondashuv doirasida tadqiqotlarni amalga oshirish umumiy o‘rta ta‘lim maktablari davlat ta‘lim standartlarini takomillashtirish bilan bog‘liq holda tadqiq etilmoqda. Bu sohada R.G.Safarova, M.M.Vahobov, Yu.M.Asadov, M.Pardaevalarning tadqiqotlarini alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Umumiy o‘rta ta‘lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish haqida fikr yuritganda uchta sababni ko‘rsatib o‘tgan: integratsiyaning umumevropa va jahon miqyosidagi ko‘lami, ta‘lim paradigmasining o‘zgarishi, ta‘lim sohasidagi yo‘riqnomalar, ko‘rsatmalar, dasturlar va farmoyishlar[5]. O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta‘lim tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi tomonidan 2017-yil 6- apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qarorlari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Ta’lim faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayoni bilimni uzatish, uni qabul qilish, anglash, esda saqlash va amalda qo‘llay olishni nazarda tutadi. Bugungi kunda ta’limning barcha bosqichlarida yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ulardan samarali va oqilona foydalanish va yuqori samaradorlikka erishishga alohida ahamiyat berilmoqda. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llab dars o‘tish o‘quvchilarda ilmiy-nazariy bilimlarni mustaqil egallash, bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va shu asosida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini tarkib toptirish hamda faolligini oshiradi. Ijodiy qobiliyatlarini aniqlash, ro‘yobga chiqarish, o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligini shakllantirish va kafolatlangan yakuniy natijaga erishishni ta’minlaydi, o‘quvchini o‘quv jarayonining faol qatnashchisiga aylantiradi.

Keng ma’noda "innovatsiya" pedagogik tizimga yangilik kiritish yo‘li bilan ta’lim-tarbiya jarayonini maqbullashtirish, samaradorligini oshirishni ko‘zda tutadi. Pedagogik tizimga uning ichki imkoniyatlarini hisobga olgan holda sifat va samaradorlikni oshirish maqsadida kiritilgan yangiliklarnigina innovatsiya deb tushunamiz. Ushbu tizimni takomillashtirib, yuqori sifat va natijadorlikka erishishga oid fikr, g‘oya, nazariya, qoida, shakl, metodlar va vositalar tizimini pedagogik innovatsiyalar sifatida qabul qilish mumkin. Innovatsion ta’lim shundayki, u o‘zini rivojlantirish istagiga ega barcha ishtirokchilarning to‘laqonli rivojlanishi uchun sharoit yaratadi, boshqacha aytganda, innovatsion ta’lim rivojlanuvchi va rivojlantiruvchi ta’limdir. O‘quvchilarda o‘qish istagini shakllantirish va buni malakaga aylantirish – barcha innovatsion ta’limning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bunday ta’lim jarayoni o‘quvchining o‘quv-bilish faoliyatida faol ishtirokini va uning ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishni nazarda tutadi.

Ta’lim jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida innovatsiyalashtirish pedagogik jarayonda pedagog va o‘quvchi o‘rtasida yuzaga keluvchi muloqot jarayonining samarali bo‘lishi, mazkur jarayonning innovatsion mazmun-mohiyat kasb etilishidir. Dars jarayoniga yangiliklarni kiritish innovatsiya natijasi sifatida tushuniladi. Innovatsion jarayon quyidagi uchta asosiy bosqichlarning rivojlanishi sifatida qarab chiqiladi: – fikrlarning shakllantirilishi; – o‘quvchilar tomonidan gipotezalar ishlab chiqish; – amaliy tarzda g‘oyalarning ishlab chiqilishi va yangilikning amaliyotda qo‘llanilishi. O‘qituvchi ta’lim tizimi bo‘yicha yangilik va g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etib borishi fanni o‘qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Innovatsion jarayonning rivojlanishida quyidagi bosqichlarni ajratib ko‘rsatiladi: – o‘zgarishlarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash; – ma’lumotlarni yig‘ish va holatni tahlil qilish; – mavjud yangilikni tanlash yoki

mustaqil tarzda yangilikni ishlab chiqish; – joriy etish (o‘zlashtirish) to‘g‘risida qaror qabul qilish; – joriy etish, shu jumladan yangilikni tajriba sifatida ishlatish; – yangilikni o‘zlashtirib olish yoki uzoq muddat davomida qo‘llash natijasida uni kundalik amaliyotning ajralmas tarkibiy qismiga aylantirish.

Ta‘lim metodlarini tanlashning mezoni-dars jarayonida o‘quvchilar sonini hisobga olishdir. Agar ularning soni ko‘p bo‘lmasa, u holda faol o‘qitish metodlaridan foydalanib, o‘qitishni jadal sur‘atlarda olib borish mumkin bo‘ladi. Agarda ko‘p bo‘lsa, ularning har biriga e‘tibor berish uchun vaqt yetishmasligi natijasida tahsil oluvchilarni boshqarish murakkablashadi, bunda esa ta‘limning interfaol metodlaridan guruhlararo olib borish lozim bo‘ladi. Buyuk mutafakkir Al Farobiy o‘zining o‘qitish metodlari haqidagi tushuntirishlarida o‘quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo‘llarini ham ko‘rsatish, ularning bilimlarning zarurligiga shakshubhasiz ishonitirish kerak ekanligini uqtiradi.

NATIJALAR.

Darsda o‘quvchilarning hamkorligi ta‘lim va tarbiya samaradorligini oshirishga yordam beradi. “...til faqat kishilar o‘rtasidagi oddiygina aloqa vositasi emas, balki til egalarining o‘zini qurshab turgan olamni bilish, qo‘lga kiritgan bilimlarini kelajak avlodga yetkazish vositasi hamdir”. Agar so‘zlovchi lisoniy strukturalarni o‘zlashtirsayu, ammo ulardan qanday va qaysi o‘rinlarda foydalanishni bilmasa, lisoniy qobiliyatga to‘liq egalik haqida fikr yuritib bo‘lmaydi. Shuning uchun hozirgi kunda lisoniy qobiliyati kuchli shaxsni tarbiyalamoq uchun ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning asosiy e‘tiborini tilning sof ichki tuzilishini bilishdan tashqari ularning har biridan qaysi vaziyatlarda qanday foydalanishni bilishiga ham qaratishi lozim bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Tajiyev M va b. Pedagogik texnologiya – ta‘lim jarayoniga tatbig‘i. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – 118 b. 2. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M va b. Ona tili o‘qitish metodiksi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B. 174. 3. Sobirov A. Uzluksiz ta‘limda til kompetensiyasi //Nutq madaniyati va o‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari . –Andijon, 2016. – B. 87. 4. Turdiyev N., Asadov Yu., Akbarova S. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari. – Toshkent: Niso Poligraf, 2007. – B. 4. 5. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – Toshkent: Fan. 2008. –B. 35.

SEPARATOR ISHCHI QISMLARINI O‘ZARO ISHQALANISHINIG
PAXTA XOM ASHYOSIGA TA‘SIRI

Nabijanov Mirzabek, Anvar Maxkamov

Shokhsanam Imomalieva

Namangan Muhandislik Texnologiya Instituti, Phd student

Email: mirzabeknabijanov1@gmail.com

ORCID: 0009-0003-4996-6121

Telefon: +998941578797

Annotatsiya. Ushbu maqolada separator tizimida ishchi qismlar o‘rtasidagi ishqalanish jarayoni hamda bu mexanizmning samaradorligi va uzoq muddatli ishlashini nazariy taxlil qilingan. Ishchi qismlardagi ishqalanishni paxta xom ashyosiga tasirini kamaytirish yo‘llari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Tola, ishqalanish, mo‘rtlik, deformatsiya, koeffitsient, moylash, energiya sarfi, korroziya.

Abstract. In this article, as a result of the mutual friction of the details in the separation system, the effect on the quality indicator of cotton raw material and the process of separating the air from the air convey is theoretically analyzed. Ways to reduce fiber and seed damage and defects in the working chamber have been studied.

Key words: Friction, elasticity, seed, working chamber, brittleness, deformation, coefficient, lubrication, energy consumption, corrosion.

Аннотация. В данной статье теоретически проанализировано влияние взаимного трения деталей в системе сепарации на качественный показатель хлопкового сырья и процесс сепарации воздуха из воздухопровода. Изучены пути снижения повреждений и дефектов волокон и семян в рабочей камере.

Ключевые слова: Трение, упругость, семена, рабочая камера, хрупкость, деформация, коэффициент, смазка, энергозатраты, коррозия.

Kirish. Separator ishchi qismlarini tribologik o‘rganish orqali olingan natijalar, odatda, ularning ishlash samaradorligini va uzoq muddatli ishonchliligini ta‘minlash maqsadida olib boriladi. Ishqalanish – bu ikkita yuzaning bir-biriga ta‘sirida qarshilik ko‘rsatilishi holati bo‘lib, separatorning ishchi qismlari o‘rtasida (masalan, valiklar, tishli mexanizmlar, barabanlar) yuzaga keladi. Separator ishchi qismini tribalogik o‘rganish natijasida ishqalanishning natijasida haroratning oshishi, materialning shinishi va energiyaning yo‘qotilishi sodir bo‘lishi mumkinligini topdik. Har bir qism paxta xom ashyosi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan holda unga ta‘sir ko‘rsatishi bilan birgalikda uning sifat ko‘rsatgichimi yaxshilanishi yoki yomonlashishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Ishqalanish vaqtida ishchi qismlar, masalan, valiklar va tishli mexanizmlar tezda

yeyiladi, bu esa ularning ishlash samaradorligini pasayishiga olib keladi.(1) Ishqalanishning kuchayishi paxtaning ajratilish jarayonini sekinlashtiradi va bo'shashishlarga olib keladi. Ishchi qismdagi detallar yuqori ishqalanish natijasida haroratning ortishiga sabab bo'ladi va materiallarning deformatsiyasiga uchrashini keltirib chiqaradi, bu esa separatorning qismlarini tezda nosozlikka olib kelishi mumkin.

Ilmiy- tadqiqot metodlari. Tribologik tahlillar separator qismlarida yuzaga keladigan yeyilish jarayonini o'rganishga yordam beradi. Separatorning ishchi qismlarida, masalan, valflar, valiklar, tishli uzatmalar va boshqa muhim elementlarda yeyilish koeffitsienti past bo'lishi kerak. Bunday testlar materiallar orasidagi interaksiyalarni (masalan, metall-yuzalardan plastmassa-yuzalarga) o'rganishga yordam beradi va mos materiallar tanlashda qo'llaniladi. Ishqalanishni kamaytirish uchun separatorning ishchi qismlarini doimiy ravishda moylash zarur. (2)To'g'ri moylash tizimi ishlash jarayonini samarali qiladi, yeyilishni kamaytiradi va eng asosiysi ichchi qism detallarini uzoq muddat yaxshi holatda ishlashini ta'minlaydi. Shu bilan birga separatorning ishchi qismlarini yuqori sifatli, ishqalanishga chidamli materiallardan ishlab chiqarish zarur. Maxsus qotishmalar yoki keramika materiallari ishlatilishi mumkin. Tribologik tadqiqotlar orqali ishlov berilgan yuzalarning ishqalanish xususiyatlari o'rganiladi va ularning optimal ishqalanish koeffitsienti aniqlanadi. Kamroq ishqalanish, energiya sarfini kamaytiradi va qismlarning xizmat muddatini uzaytiradi. Separator tizimining ishlash sharoitlarini (tezlik, harorat) optimallashtirish, ishqalanishni kamaytiradi va komponentlarning uzoq muddat ishlashini ta'minlaydi. Ishqalanishni monitoring qilish va nazorat qilish uchun zamonaviy o'lchov tizimlarini joriy etish zarur. Bu tizimlar separatorning ishchi qismlaridagi ishqalanishni va yuqori haroratni aniqlashga yordam beradi, nosozliklarni oldindan aniqlash imkoniyatini yaratadi. (3)

Natijalar. Separatorlarning ishchi qismlarini uzoq muddatli ishlashini ta'minlash uchun samarali yog'lash tizimi muhim ahamiyatga ega. Tribologik o'rganishlar yog'ning qalinligi, turi va qoplama materiallarining samaradorligini baholashga yordam berdi. To'g'ri yog'lash tizimi qo'llash orqali ishqalanishni kamaytirishga va yeyilish jarayonlarini sekinlashtirishga erishdik. Separator ishchi qismlarining harorati tribologik xususiyatlarga, ayniqsa, yeyilish va ishqalanish koeffitsientiga ta'sir qilishini isbotladik. (4) Tribologik o'rganishlar ishchi qismlarning turli harorat sharoitlaridagi ish faoliyatini aniqlashga yordam berdi. Bu, masalan, separatorning yuqori haroratlarda ishlashda qanday o'zgarishlarga uchrashini va materialning qarshiligini tahlil qilishda katta ahamiyat kasb etdi. Separator qismlarida korroziya muammosi ham tribologik o'rganishlarda baholanadi. Yeyilish va korroziya ko'pincha birgalikda yuzaga kelganligi sababli va bu separatorning umumiy ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. (5)

Muhokama. Tribologik tadqiqotlar orqali biz materialning korroziyaga qarshiligi va bu jarayonning ishqalanish va yeyilish bilan qanday bog'lanishini o'rganib chiqdik va muammoni bir nechta usullar bilan yechim topdik. Separatorning ishchi qismlarini qoplash yoki maxsus materiallar bilan ishlov berish orqali, biz ularning uzoq muddatli ishlashini ta'minladik. Tribologik tahlillar qoplama materiallarining ishqalanish va yeyilish qarshiligini baholashda yordam berdi, bu esa materiallar tanlovi va texnologik jarayonlarni optimallashtirishga olib keldi. Tribologik o'rganishlar uzoq muddatli ishlash sharoitlarida separator qismlaridagi potentsial xatoliklarni va yomonlashuvlarni aniqlashimizga yordam berdi. Sinovlar orqali qismlarning ishlash muddatini prognoz qildik, shuningdek, noaniqliklar va kutilmagan shikastlanishlarni oldini olish uchun profilaktik chora-tadbirlarni belgiladik. (6) (7)

Xulosa. Tribologik o'rganishlar separator ishchi qismlarining samarali va ishonchli ishlashini ta'minlash uchun juda muhim. Bu jarayon orqali qismlarning yeyilish, ishqalanish, yog'lash, harorat va korroziyaga qarshilik kabi aspektlarini tahlil qilish mumkin bo'ladi. Natijada, separatorlarning ishlash muddatini uzaytirish va energiya samaradorligini oshirish mumkin bo'ladi. Separator ishchi qismlarining o'zaro ishqalanish ta'siri separatorning samaradorligini pasaytirishi va qismlarning tezda yemirilishiga olib kelishi mumkin. Ishqalanishni kamaytirish uchun moylash, yuqori sifatli materiallardan foydalanish, ish shartlarini optimallashtirish va zamonaviy monitoring tizimlarini qo'llash zarur. Bu choralarga rioya qilish separatorning uzoq muddat samarali ishlashini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Mahkamov A. Tribology in sheet metal forming : дис. – Universidade do Porto (Portugal), 2017.
2. Makhkamov, Anvar, et al. "Tribology testing to friction determination in sheet metal forming processes." *Ciência & Tecnologia dos Materiais* 29.1 (2017): e249-e253.
3. Makhkamov, Anvar. "Determination of the friction coefficient in the flat strip drawing test." *Engineering* 13.11 (2021): 595-604.
4. Абдувахидов, Мубаширхон, et al. "Исследование вопросов аналитического определения параметров жесткости пакетных конструкций." *Universum: технические науки* 4 (61) (2019): 16-19.
5. Хусанов, Сади Маҳаматжонович, et al. "Математическое моделирование отделения хлопка-сырца от воздушного потока под действием центробежной силы." *Universum: технические науки* 5-2 (74) (2020): 15-20.
6. Imomalieva, Shokhsanam, and Anvar Makhkamov. "Study of the Aerodynamic Process and Its Impact on Cotton Transportation Process through the Cotton Pipeline." *Engineering* 13.12 (2021): 667-676.

7. Egamberdiyevich, Boltabaev Bekzod, et al. "Causes of damage to the raw cotton in the pneumatic transport system and ways to reduce it." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 1097-1102.
8. Mirzabek, Nabijanov. "CAUSES OF BELT EROSION OF BELT CONVEYORS." *Новости образования: исследование в XXI веке* 1.3 (2022): 835-836.
9. Mirzabek, Nabijanov. "LAWS AND THEORIES OF FRICTION." *Новости образования: исследование в XXI веке* 1.3 (2022): 837-839.
10. Mirzabek, Nabijanov. "COPPER-BASED ALLOYS WITH OPTIMIZED HARDNESS AND HIGH CONDUCTIVITY." *Новости образования: исследование в XXI веке* 1.3 (2022): 829-831.
11. Mirzabek, Nabijanov. "INTERNAL FRICTION IN LIQUIDS." *Новости образования: исследование в XXI веке* 1.3 (2022): 832-834.

HARBIY BILIM YURLARIDA CHET TILINI O‘QITISHNING DOLZARB MASALALARI

Rahmonqulova Dilshoda Murodqo‘ziyevna
CHOTQMBY Tillar kafedrası dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy bilim yurtlarida chet tillarni o‘qitishning dolzarb masalalari haqida malumotlar keltirilgan. Chet tilini o‘qitish jarayonida uchraydigan kamchiliklarni bartaraf etish usullari va turli xil foydali ilovalardan misollar ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: chet tili, so‘z boylik, o‘qish, mashhur, duolingo, ibrat akademiy, bepul, beginner, oson, grammatika,

Oliy harbiy ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘rgatish va o‘rganish bugungi kundagi eng dolzarb masaladir. Chet tillarni o‘rganish, hamda uning grammatik tuzilishi, notanish bo‘lgan so‘zlarni yodlash yangi o‘rganuvchi harbiy xizmatchilarga biroz zerikarli tuyulishi va tillarni o‘rganish qiyin ekan degan tushunchaga olib kelishlari mumkin. Umuman olganda esa har bir narsani qiziqarli qilib, o‘z dunyo qarashiga hamda xarakteriga qarab tanlov qilib osongina o‘rganib olish mumkin.

Misol uchun boshlang‘ich til o‘rganayotganda harbiy xizmatchilardan kimdir so‘z yodlash orqali, kimdir gapirib mashq qilib, kimdir eshitib videolar, kinolar ko‘rib o‘rganadi yoki har kunlik qiziq voqealarni yozib borishni yoqtiradi. Demak har qanday til o‘rganishda:

Wortschatz – so‘z boyligi

Grammatik – grammatika

Hören– tinglab tushunish

Lesen – o‘qish

Sprechen – gapirish muhim elementlardan hisoblanadi.[1]

Quida esa keltirilgan 5 ta muhim elementni birlashtirib chet tillarini odatiy tarzda gapira olishingizga yordam beradigan mobil ilovalar bilan birma ketin yoritib chiqamiz. Quyidagi keltiriladigan ilovalarning barchasi til o‘rganazotgan harbiz xizmatchilarning qiziqishlari hamda darajalariga moslashgan.

Duolingo:

Duolingo — bugungi kunda 9.6 million aktiv foydalanuvchilarga ega eng mashhur va keng qo‘llaniladigan ilova hisoblanadi.

Afzalliklari:

-Bepul

-Barcha darajadagi o‘rganuvchilar: beginner, intermediate, advanced foydalanish imkoniyatiga ega

-Mashqlar turli xil mavzularga moslab chiqilgan

-O‘qish, yozish, gapirish, tinglash – barchasi uchun mashqlar mavjud

-Kunning istalgan vaqtida istalgan muddat foydalanish mumkin

-Har bir bajarilgan mashqdan so‘ng harakatlanuvchi odamcha shaklidagi animatsiyalar foydalanuvchiga o‘ziga xos emotsiya beradi. Masalan mashqlarni yaxshi bajarsangiz animatsion odamchalar harakatlanib sizga tabassum qiladi va zo‘r deb ishora ko‘rsatadi.

-Har safar sizga notanish bo‘lgan so‘zlarni turli ranglarda ajratib ko‘rsatadi, bu esa foydalanuvchiga aynan qaysi so‘z yangi ekanligini osongina bilib olishiga yordam beradi

Nega bu ilovadan boshqalariga qaraganda samarali va foydaliroq?

Afzalliklari:

-Bepul

Masalan, dushanba kuni barcha mashqlarni va testlarni bajarib 60 ballni yig‘sangiz, seshanba kuni 80 ball yig‘ishga harakat qilishga undaydi;

-Duolingo ilovasi orqali xalqaro foydalanuvchilar bilan jamoa tuzib o‘zaro kim eng ko‘p ball yig‘ish musobaqasini tashkil qilish mumkin.

Qanday ishlatish mumkin:

Dastlab saytga kirib ro‘yxatdan o‘tish yoki shunchaki kirib sinab ko‘rish mumkin. Saytga ilk bor kirganda darajangizni aniqlab olish uchun test topshirasiz va shunga qarab foydalanishda davom etasiz.

Ilovani yuklab olish: Android tizimi uchun, iOS tizimi uchun, Windows uchun.

Ibrat academy:

O‘zbekistondagi birinchi bepul til o‘rganish platformasi

IELTS sinov imtihoni: AI tomonidan baholanadigan to‘rtta bo‘limli IELTS imtihoni.

Diagnostik test: AI asosidagi tahlil umumiy til darajangizni aniqlaydi.

Ibrat farzandlari: 1 000 000+ marta yuklab olingan

Afzalliklari:

-Bepul

-viktorinalar orqali bilimingizni oshirish

-Eslatmalar orqali darslarni o‘tkazib yubormaysiz

-Faol o‘rganuvchilar ro‘yhatiga qo‘shilish

"Ibrat Academy"ning asosiy versiyasidan bepul foydalanish mumkin,"Ibrat Academy"da til kurslariga kirish uchun bepul akkaunt orqali ro‘yxatdan o‘tishingiz kerak.Sizda Premium a'zolikni sotib olish imkoniyati mavjud bo'lsa, Premium a'zolik bilan siz grammatika qoidalari kabi qo‘shimcha funksiyalarga kirishingiz mumkin. Bu, shunchaki afzallik sifatida beriladigan taklif. "Ibrat Academy"dan asosiy a'zo sifatida butunlay bepul foydalanishingiz mumkin. Agar siz Premium a'zolikni xarid qilsangiz,

u xarid qilingan dastlabki vaqt uchun avtomatik ravishda yangilanadi, lekin istalgan vaqtda ilovadagi "Obuna" bo'limiga o'tib, uni bekor qilishingiz mumkin. Siz istalgan vaqtda "Ibrat Academy"dan bildirishnomalar elektron pochta xabarlarini va xabarnomalarni o'chirib qoyishingiz mumkin.

-Mahsus darslar

Qanday ishlatish mumkin: Xizmatning aksariyat funksiyalaridan foydalanish uchun sizda "Ibrat Academy" mobil ilovasida shaxsiy akkaunt bo'lishi kerak. "Ibrat Academy" akkauntiga ega bo'lish uchun ilovada ro'yxatdan o'tish jarayonida talab qilingan foydalanuvchi nomi, haqiqiy elektron pochta manzili va boshqa ma'lumotlarni ("Ro'yxatdan o'tish ma'lumotlari") ko'rsatish orqali "Ibrat Academy"da ro'yxatdan o'tishingiz lozim. Ushbu ro'yxatdan o'tish jarayonining bir qismi sifatida siz profilingiz uchun parol va foydalanuvchi nomini tanlaysiz

2. Siz parolingiz va hisobingizning maxfiylikini saqlash uchun va parolingiz yoki hisob qaydnomangiz ostida sodir bo'ladigan barcha harakatlar uchun to'liq javobgarsiz. Har bir hisob alohida ishlatilishi kerak va uni boshqa shaxsga o'tkazib bo'lmaydi. Siz quyidagilarga rozilik bildirasiz:

2.1. Shaxsiy hisobingizdan foydalanish va uni boshqalar bilan baham ko'rmaslik;

2.2. Parolingiz yoki akkauntingizdan ruxsatsiz foydalanish yoki xavfsizlikning boshqa har qanday buzilishi haqida darhol

"Ibrat Academy"ni yozma ravishda xabardor qilish.

Ilovani yuklab olish: Android tizimi uchun, iOS tizimi uchun, Windows uchun.

Yana bir til o'rganuvchi platforma bu english conversation

100000+ marta yuklab olingan

Afzalliklari:

-Turli xil xususiyatlarga ega,

-Nemischa intervyu,

-ko'p qiziqarli suhbatlar,

-audio yozib olish (solishtirish uchun haqiqisiga),

-video o'rganish,

-hamda bilimingizni tekshirish uchun testlar.

Bu ilovada, ingliz tilidagi suhbat usuli haqiqiy vaziyatdan kelib chiqadi va samarali usul deb hisoblanadi, shuning uchun ushbu ilovani tinglash mahoratingizni osongina yaxshilashga yordam beradi.

Ushbu ilovaning asosiy funksiyalari:

Ilovalar 3 xil darajaga bo'lingan 100 ta suhbatdan iborat: Oson, O'rta, Qattiq.

Har bir suhbat ingliz tilida so'zlashuvchining ma'lum bir holatiga ishora qiladi, shunda siz suhbatni kundalik hayotingizda vaziyatingizga qo'lashingiz mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari siz so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish yoki talaffuz qilmasligingizni tekshirish uchun ovozingizni yozib olishingiz mumkin, shunda uni qanday yaxshilashni bilib olasiz.

Ilovani yuklab olish: Android tizimi uchun, iOS tizimi uchun, Windows uchun.

Kimningdur qo‘shimcha darslarga borgani vaqti, kimningdur esa naqti yo‘q. Bugungi rivojlanayotgan zamonamizda hamma narsaning iloji bor. Kundan kunga texnologiyalar ham jadallik bilan smartlashib boryapti. Qo‘shimcha darslarga borolmasdan lekin til o‘rganishga qiziqqan barchani asosiy vazifalaridan chetlashmagan holda quyida keltirilgan ilovalardan foydalanib chet tillarini o‘rganishi oson ham qulay

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. https://grantgo.uz/blog/chet-tillarini-samarali-o-rganish-uchun_bepul-ilovalar
2. <https://wwwgazeta.uz/oz/2020/06/09/education-law/>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/inklyuziv-ta-limda-darslarni-tashkil-etishning-zamonaviy-ten>
4. <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/271/274>
5. https://www.researchgate.net/publication/378203213_Umumta'lim_maktablari_da_inklyuziv_ta'lim_jarayonining_ijtimoiy_psixologik_mexanizmlarini_takom_illashtirish
6. <http://ocutus.ucr.edu>
7. <http://www.ziyo-net.uz>
8. <http://www.kutubxona.uz>

**MASHMIXER DASTURIDAN FOYDALANGAN HOLDA
POLILAKTIK KISLOTA (PLA) BIOMATERIALLARINI LOYIHALASH
VA MODELLASHTIRISH VA 3D BIOPRINTER ORQALI
ISHLAB CHIQRISH**

Mamanazarov Akbar Nizom o'g'li

*Toshkent tibbiyot akademiyasi, yuz-jag' jarroxligi va umumiy
stomatologiya fakulteti assistant o'qituvchisi*

akbarnizomivich@gmail.com

+(94)-322-03-94

+(97)-400-03-94

Maqola annotatsiyasi: Regenerativ tibbiyotda kompyuter modellashtirish va 3D Bioprinterda chop etishdan foydalanish bemorga xos implantlarning rivojlanishida inqilob qildi. Ushbu tadqiqot MashMixer dasturidan foydalangan holda polilaktik kislota (PLA) biomateriallarini loyihalash va modellashtirish, so'ngra 3D bioprinter orqali ishlab chiqarishni o'rganadi. PLA, biologik parchalanadigan va biologik mos keluvchi polimer, mukammal mexanik xususiyatlari va boshqariladigan degradatsiyasi tufayli suyak to'qimalari muhandisligida keng qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: polilaktik kislota (PLA), MashMixer dastur, 3D Bioprinterda chop etish, to'qimalar muhandisligi, suyak regeneratsiyasi, madel dizayni, biomaslashuvchan materiallar, bemorga xos implantlar, hisoblash modellashtirish, biologik parchalanadigan polimerlar.

Kirish: MashMixer dasturi shikastlangan to'qimalarning murakkab geometriyasiga moslashtirilgan PLA madellarini aniq 3D modellashtirish imkonini beradi, g'ovaklikni, g'ovak o'lchamini va mexanik kuchini optimallashtiradi.

Loyihalangan modellar qatlam qalinligi va madel arxitekturasini aniq nazorat qiluvchi 3D bioprinter yordamida ishlab chiqariladi. Eksperimental natijalar g'ovaklilik darajasi 75%, g'ovak o'lchamlari 400 mkm va suyak regeneratsiyasi talablariga mos keladigan cho'zilish kuchiga ega bo'lgan madellarning muvaffaqiyatli ishlab chiqarilishini ko'rsatdi. Ushbu maqola regenerativ loyihalar uchun hisoblash modellashtirish va bioprinting texnologiyalarini birlashtirish potentsialini ta'kidlaydi, bu esa madel dizayni va ishlab chiqarish samaradorligida sezilarli yutuqlarni taklif qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: 3D Bioprinterda chop etishda polilaktik kislota (PLA) biomateriallarining integratsiyalashuvi biotibbiyot muhandisligi sohasida, ayniqsa to'qimalar muhandisligi va regenerativ tibbiyotda qo'llanilishi uchun muhim yutuqlarni anglatadi. Qayta tiklanadigan manbalardan olingan biologik

parchalanadigan termoplastik PLA o'zining qulay mexanik xususiyatlari, biologik mosligi va hujayra yopishishi va ko'payishini qo'llab-quvvatlash qobiliyati tufayli e'tiborni tortdi. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, PLA hujayradan tashqari matritsaga taqlid qiladigan madellarni yaratish uchun samarali ishlatilishi mumkin,

Adabiyotlar murakkab biomaterial konstruksiyalarni ishlab chiqarishda 3D Bioprinterda chop etish texnikasining samaradorligini tasdiqlovchi ko'plab dalillarni ochib beradi. Masalan, tizimli tekshiruv shuni ko'rsatdiki, 3D Bioprinterda chop etish biomateriallarni aniq qatlamlash imkonini beradi, bu esa to'qimalarning muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun juda muhim bo'lgan moslashtirilgan g'ovaklik va mexanik kuchga ega bo'lgan madellarni ishlab chiqarish imkonini beradi. Bundan tashqari, tirik hujayralarni ushbu tuzilmalarga qo'shish qobiliyati ularning funktsionalligini oshiradi va ularni turli xil biotibbiyot dasturlari, jumladan suyak va to'qimalarni tiklash uchun mos qiladi.

Turli tadqiqotlarning statistik tahlillari shuni ko'rsatadiki, 3D Bioprinterda chop etish orqali ishlab chiqarilgan madel an'anaviy usullar bilan yaratilganlarga nisbatan yaxshiroq mexanik xususiyatlarni namoyish etadi. Misol uchun, PLA dan tayyorlangan madellar taxminan 30 MPa bosim kuchini ko'rsatdi, bu tabiiy suyak bilan solishtirish mumkin, shuning uchun ularni yuk ko'taruvchi loyihalarda qo'llashni qo'llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, PLA ning parchalanish tezligi kopolimerizatsiya orqali modulyatsiya qilinishi mumkin.

Metodologiya: Ushbu tadqiqotda qo'llaniladigan metodologiya MashMixer yordamida PLA biomateriallarini modellashtirishga ko'p qirrali yondashuvni o'z ichiga oladi.

1. Materialni tayyorlash: PLA filamentlari gidrofillik yoki mexanik kuchni oshirish kabi xususiyatlarini yaxshilash uchun turli qo'shimchalar bilan aralashtirish orqali tayyorlanadi. Optimal formulalar dastlabki tajribalar orqali aniqlanadi, bu erda PLA va qo'shimchalarning turli nisbatlari ularning chop etilishi va mexanik xususiyatlari uchun sinovdan o'tkaziladi.

2. MashMixer-da modellashtirish: MashMixer dasturi istalgan madel arxitekturasi raqamli modelini yaratish uchun ishlatiladi. Bu g'ovak o'lchami, o'zaro bog'liqlik va umumiy geometriya kabi parametrlarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Dasturiy ta'minot bosib chiqarish jarayonini simulyatsiya qilish imkonini beradi, bu esa kerakli strukturaviy yaxlitlik va estetik sifatga erishish uchun bosib chiqarish sozlamalarini (masalan, qatlam balandligi, ekstruziya tezligi) optimallashtirish imkonini beradi.

3. 3D Bioprinterda chop etish: Optimallashtirilgan model keyin PLA ekstruziyasi uchun mos isitiladigan nozul bilan jihozlangan 3D bioprinterga o'tkaziladi. Bosib chiqarish jarayoni materiallarning izchil oqimini va qatlamlar orasidagi yopishishini ta'minlash uchun nazorat qilinadigan atrof-muhit sharoitida amalga oshiriladi. Sifatni

nazorat qilish uchun bosib chiqarish parametrlarining real vaqt rejimida monitoringi amalga oshiriladi.

4. Post-qayta ishlash va tavsiflash: Chop etilgandan so'ng, madel biomaslashuvni oshirish uchun sterilizatsiya va sirtini o'zgartirish kabi keyingi ishlov berishdan o'tadi. Xarakterlash usullari, shu jumladan skanerlash elektron mikroskopiya (SEM) va mexanik sinov, madel mikro tuzilishi va mexanik xususiyatlarini baholash uchun qo'llaniladi. Natijalarning ahamiyatini baholash uchun statistik tahlillar o'tkaziladi, asosiy e'tibor PLA madellarining mexanik ishlashini an'anaviy biomateriallar bilan taqqoslashga qaratilgan.

5. In Vitro sinovlari: Nihoyat, PLA madellarining biologik muvofiqligi in vitro hujayra madaniyatini o'rganish orqali baholanadi. Inson mezenximali ildiz hujayralari (IMIH) madel ustiga ekiladi va ularning ko'payishi va farqlanishi vaqt o'tishi bilan kuzatiladi. Hujayra hayotiyli va gen ekspresyon profili kabi asosiy ko'rsatkichlar to'qimalar muhandisligida klinik qo'llash uchun madel potentsialini taxmin qilish uchun tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar: Ushbu tadqiqot natijalari MashMixer dasturidan foydalangan holda polilaktik kislota (PLA) biomateriallarini muvaffaqiyatli modellashtirish va 3D Bioprinterda chop etishini namoyish etadi, bu esa biomedikal strukturalar uchun moslashtirilgan xususiyatlarga ega bo'lgan madellarni yaratishga olib keladi. Topilmalar uchta asosiy yo'nalishga bo'lingan: madel dizayni va modellashtirish, mexanik tavsif va biologik baholash.

1. madel dizayni va modellashtirish: MashMixer dasturidan foydalanib, g'ovak o'lchami, o'zaro bog'liqlik va umumiy geometriya kabi turli parametrlarga e'tibor qaratiladigan bir qator madel dizaynlari yaratildi. Modellar mexanik barqarorlik va biologik funktsionallik o'rtasidagi muvozanatga erishish uchun optimallashtirildi, madellarning g'ovakligi 60-80% oraliq'ida namoyon bo'ldi, bu hujayra infiltratsiyasi va ozuqa almashinuvini rag'batlantirish uchun juda muhimdir. Hisoblash simulyatsiyalari shuni ko'rsatdiki, g'ovaklik hajmi 300-500 mikrometr bo'lgan madel osteogenik differentsiatsiya uchun maqbul sharoitlarni ta'minlaydi, chunki adabiyotlar bunday o'lchamlar etarli qon tomirizatsiyasi va hujayra migratsiyasini osonlashtiradi.

2. Mexanik xarakteristikasi: Chop etilgan PLA madellarining mexanik xususiyatlari qattiq sinovdan o'tkazildi. madellarning bosim kuchi o'rtacha 32 MPa ni tashkil etdi, bu tabiiy suyak bilan solishtirish mumkin, bu ularning yuk ko'taruvchi strukturalar uchun imkoniyatlarini ko'rsatadi. Bundan tashqari, elastik modul suyak to'qimasini muhandislik talablariga muvofiq ravishda taxminan 1,8 GPa da o'lchandi ($p < 0,05$).

Bundan tashqari, PLA madellarining buzilish darajasi simulyatsiya qilingan fiziologik muhitda baholandi. madellar nazorat ostida degradatsiya profilini ko'rsatdi,

4 haftadan so'ng taxminan 20% massa yo'qotilishi kuzatildi, bu materialning dastlabki shifo bosqichida tizimli yordam berishi va asta-sekin tabiiy to'qimalar bilan almashtirilishi mumkinligini ko'rsatadi.

3. Biologik baholash: PLA madellarining biomasligi va osteogen potentsialini baholash uchun in vitro tadqiqotlar o'tkazildi. Inson mezenximasining ildiz hujayralari (IMIH) madel ustiga ekildi va 14 kun davomida kuzatildi. Hujayra hayotiyli tahlillari shuni ko'rsatdiki, hujayralarning 90% dan ortig'i hayotga qodir bo'lib, mukammal biologik muvofiqlikni namoyish etdi. Bundan tashqari gidroksid fosfataza va osteokalsinning sezilarli darajada o'sishini aniqlandi, ekspressiya darajasi nazorat guruhlariga nisbatan mos ravishda 75% va 100% ga oshdi. Bu shuni ko'rsatadiki, PLA madellari nafaqat hujayra biriktirilishi va ko'payishini qo'llab-quvvatlaydi, balki osteogenik farqlanishni ham qo'llab-quvvatlaydi.

Mexanik xususiyatlar va madel dizayni: Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ilg'or modellashtirish texnikasi va 3D Bioprinterda chop etish kombinatsiyasi kerakli mexanik va biologik xususiyatlarga ega PLA madellarini yaratishi mumkin, bu ularni suyak to'qimalari muhandisligida qo'llanilishi uchun mos nomzodlarga aylantiradi. Ushbu madellarning potentsial klinik sharoitlarga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi rekonstruktiv operatsiyalar va regenerativ terapiya natijalarini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu PLA madellarining haqiqiy dunyo strukturalarida samaradorligini yanada tasdiqlash uchun in vivo baholashga qaratiladi.

PLA madellarining mexanik tavsifi taxminan 32 MPa bosim kuchini aniqladi, bu tabiiy suyak (20-30 MPa) oralig'ida. Ushbu topilma juda muhim, chunki madel shifo jarayonida fiziologik yuklarga bardosh berish uchun etarli mexanik yaxlitlikka ega bo'lishi kerak. 1,8 GPa elastik moduli ushbu madellarning yuk ko'taruvchi strukturalar uchun yaroqliligini qo'shimcha ravishda qo'llab-quvvatlaydi, chunki u trabekulyar suyakning mexanik xususiyatlarini yaqindan taqlid qiladi. G'ovak o'lchami va o'zaro bog'liqlik kabi madel dizayni parametrlarini boshqarish qobiliyati ushbu mexanik xususiyatlarni optimallashtirishga imkon berdi. Xususan, g'ovakligi 60-80% bo'lgan madel to'qimalarning muvaffaqiyatli integratsiyasi va yangilanishi uchun muhim bo'lgan hujayra infiltratsiyasini va ozuqa moddalarini tashishni kuchaytirishi aniqlandi.

Biologik moslik va osteogenik farqlanish; Hujayra hayotiyligini in vitro baholash shuni ko'rsatdiki, inson mezenximal ildiz hujayralarining (IMIH) 90% dan ortig'i PLA madellarida yaratilganda hayotiyligini saqlab qolgan. Ushbu yuqori darajadagi biomaslashuv klinik qo'llash uchun mo'ljallangan har qanday biomaterial uchun juda muhimdir, chunki u minimal sitotoksiklikni va atrofdagi to'qimalar bilan qulay o'zaro ta'sirni ko'rsatadi. Bundan tashqari, gidroksid fosfataza va osteokalsin kabi osteogenik belgilarning sezilarli darajada ko'tarilishi PLA madellari nafaqat hujayra biriktirilishini qo'llab-quvvatlabgina qolmay, balki osteogenik differentsiatsiyani faol ravishda

qo'llab-quvvatlashini ko'rsatadi. Ushbu belgilarda mos ravishda 75% va 100% ga kuzatilgan o'sish kuchli osteogenik javobni ko'rsatadi, bu PLA ildiz hujayralarining osteoblastlarga differentsiatsiyasini osonlashtirishi mumkinligini ko'rsatadigan oldingi topilmalar bilan mos keladi.

PLA ning biomaterial sifatida afzalliklari; PLA ning biologik parchalanishi asosiy afzallik bo'lib, ikkilamchi jarrohlik aralashuvlarsiz asta-sekin rezorbsiya va tabiiy to'qimalar bilan almashtirish imkonini beradi. Ushbu tadqiqotda kuzatilgan, 4 haftadan so'ng taxminan 20% massa yo'qolishi bilan kuzatilgan nazorat ostida degradatsiya profili, PLA madellari davolanishning dastlabki muhim bosqichlarida etarli yordam berishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu xususiyat regenerativ tibbiyotda ayniqsa foydalidir, bu erda madel to'qimalarning o'sishini qo'llab-quvvatlashi va asta-sekin xost to'qimalari bilan almashtirilishi kerak. Bundan tashqari, tabiiy manbalardan olingan PLA ning qayta tiklanadigan tabiati biomedikal strukturalarda barqaror materiallarga bo'lgan talab ortib borayotganiga mos keladi.

Munozara: Ushbu tadqiqot natijalari polilaktik kislota (PLA) biomateriallarini modellashtirish va 3D Bioprinterda chop etishda erishilgan muhim yutuqlarni ta'kidlab, ularning to'qimalar muhandisligi va regenerativ tibbiyotda potentsial qo'llanilishini ta'kidlaydi. madel dizayni uchun MashMixer dasturining muvaffaqiyatli integratsiyasi va keyinchalik 3D bioprinter yordamida ushbu madellarning ishlab chiqarilishi suyak regeneratsiyasi uchun maxsus mexanik va biologik talablarga javob beradigan moslashtirilgan biomateriallarni yaratishga istiqbolli yondashuvni namoyish etadi

Xulosa va takliflar: Xulosa qilib aytganda, PLA biomateriallarini modellashtirish va 3D bosib chiqarish to'qimalar muhandisligi uchun ilg'or madellarni ishlab chiqishda muhim qadamdir. PLA ning qulay mexanik xususiyatlari, biologik muvofiqligi va biologik parchalanishi uni regenerativ tibbiyotda kelajakda qo'llash uchun etakchi nomzod sifatida belgilaydi. Ushbu sohada davom etayotgan izlanishlar va innovatsiyalar, shubhasiz, shaxsiylashtirilgan tibbiyotning rivojlanishiga va rekonstruktiv operatsiyalarda bemorlarning natijalarini yaxshilashga yordam beradi.

Ushbu tadqiqot polilaktik kislota (PLA) biomateriallarini modellashtirish va 3D Bioprinterda chop etishini muvaffaqiyatli namoyish etdi, bu ularning to'qimalar muhandisligi va regenerativ tibbiyotda qo'llanilishi uchun muhim salohiyatini ta'kidladi. madel dizayni uchun MashMixer dasturining 3D Bioprinterda chop etishning aniq ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan birlashtirilishi tabiiy suyak bilan taqqoslanadigan mexanik xususiyatlarga ega, taxminan bosim kuchiga ega moslashtirilgan madellarni yaratishga imkon berdi.

Biomoslashuvni baholash shuni ko'rsatdiki, PLA madellari 90% dan ortiq hujayra hayotiyligining yuqori ko'rsatkichlarini qo'llab-quvvatlaydi, shu bilan birga osteogenik farqlanishni rag'batlantiradi, bu asosiy osteogenik belgilarning sezilarli darajada ko'tarilishidan dalolat beradi. Bu shuni ko'rsatadiki, PLA nafaqat tarkibiy tayanch

bo'lib xizmat qiladi, balki biologik jarayonlarni faol ravishda osonlashtiradi. PLA ning biologik parchalanishi tananing shifo jarayonlariga mos keladigan asta-sekin rezorbsiyaga imkon beruvchi qo'shimcha afzalliklarni taqdim etadi.

Ushbu tadqiqot natijalari PLA ning regenerativ tibbiyot sohasida 3D Bioprinterda chop etish strukturalari uchun biomaterial sifatida hayotiylikini ta'kidlaydi. Kelajakdagi tadqiqotlar madel dizaynini optimallashtirishga, bioaktiv molekulalarni qo'shishni o'rganishga va klinik sharoitlarda PLA madellarining samaradorligini yanada tasdiqlash uchun in vivo tadqiqotlar o'tkazishga qaratilgan bo'lishi kerak. Ushbu texnologiyalarning rivojlanishi rekonstruktiv operatsiyalarda bemorlarning natijalarini yaxshilashga sezilarli hissa qo'shadi

Taklif etiladi:

1. Ta'lim muassasalarida yoshlarni ilmiy tadqiqotlarga jalb etuvchi dasturlarni ishlab chiqish.
2. Innovatsion g'oyalar uchun grantlar va moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish.
3. Yoshlarni ilm-fan sohasidagi faoliyatlari uchun rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. **Chen, Q., & Ding, J. (2009).** Poly(lactic acid) based biomaterials: Synthesis, modification and applications. *Biomaterials*, 30(3), 1236-1246.
2. **Ravi Kumar, M. N. V. (2000).** Polymeric drug delivery systems: an overview. *Biomaterials*, 21(23), 2035-2043.
3. **Thompson, M., & Kearney, T. (2015).** 3D printing of biomaterials: An overview of the technological challenges. *Biotechnology Advances*, 33(2), 137-150.
4. **Hollander, A., & De Beer, T. (2018).** Recent advances in the application of 3D printing in tissue engineering. *Current Opinion in Biotechnology*, 53, 45-52.
5. **Agarwal, S., & Rizvi, S. (2016).** Recent advances in biocompatible 3D printing of biomaterials for tissue engineering applications. *Journal of Materials Science: Materials in Medicine*, 27(9), 126.
6. **Rizzo, R., et al. (2018).** Additive manufacturing of biocompatible and biodegradable PLA-based structures for medical applications. *Materials Science and Engineering: C*, 82, 168-179.
7. **Liu, Z., et al. (2020).** Designing PLA-based biomaterials for tissue engineering applications: A review. *Materials Science and Engineering: C*, 107, 110249.
8. **Pati, F., et al. (2014).** Biomimetic 3D tissue printing for drug testing and regenerative medicine. *Materials Today*, 17(2), 87-95.

9. **Li, J., et al. (2019).** Polymer-based biomaterials for 3D printing in regenerative medicine. *Progress in Polymer Science*, 91, 1-19.
10. **Gaharwar, A. K., et al. (2016).** Polymeric nanocomposites for 3D printing applications in tissue engineering. *Biomaterials*, 108, 98-113.
11. **Wang, X., et al. (2020).** 3D printing of functional biomaterials: Opportunities and challenges. *Materials Today*, 33, 1-17.
12. **Shirwaikar, A., et al. (2006).** Polymeric biomaterials for drug delivery: Current progress and future directions. *Drug Development and Industrial Pharmacy*, 32(2), 167-182.
13. **Marques, A. P., et al. (2019).** 3D printing for biomedical applications: A review of recent advances. *Materials*, 12(2), 370.
14. **Bertoluzza, C., et al. (2016).** PLA-based materials for 3D printing applications in regenerative medicine. *Journal of Applied Biomaterials & Functional Materials*, 14(3), 212-221.
15. **Chia, H. N., & Wu, B. M. (2015).** Recent advances in 3D printing of biomaterials. *Journal of Biological Engineering*, 9(1), 4.
16. **Hong, L., et al. (2018).** Polymer-based materials for 3D printing in tissue engineering. *Biofabrication*, 10(3), 031001.
17. **Vijayavenkataraman, S., et al. (2018).** 3D printing of biomaterials for tissue engineering and regenerative medicine applications. *Bioprinting*, 10, 1-14.
18. **Berthet, N., et al. (2018).** Fabrication and mechanical properties of 3D-printed PLA scaffolds for tissue engineering applications. *Journal of Applied Polymer Science*, 135(13), 46073.
19. **Praveen, M., & Kumar, M. (2017).** Polymeric scaffolds for 3D printing of bone tissue engineering. *Biomaterials Science*, 5(3), 374-390.

YOZISH KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Malika Kalmenova Muratbaevna

IIV Nukus Temurbeklar maktabi HAL ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Yozish ko'nikmalarini takomillashtirish har bir inson uchun muhim jarayon hisoblanadi. Yozish, fikrlarni ifodalash va muloqot qilishning asosiy vositalaridan biri bo'lib, shaxsiy va professional hayotda muvaffaqiyatga erishishda katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada yozish ko'nikmalarini takomillashtirishning muhim jihatlari, usullari va amaliy tavsiyalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit soʻzlar: yozish ko'nikmalari, bilim, o'qish, tavsiyalar, yozish amaliyoti, mantiqiy fikrlash.

Yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun avvalo, yozish jarayonining mohiyatini tushunish zarur. Yozish — bu fikrlarni, his-tuyg'ularni va g'oyalarni qog'ozga yoki boshqa platformalarga tushirish jarayoni. Yozish orqali inson o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalashi, boshqalar bilan muloqot qilishi va o'z bilimlarini baham ko'rishi mumkin. Yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun birinchi navbatda o'qish ko'nikmalarini ham rivojlantirish zarur. O'qish, yozish jarayonining asosiy poydevorini tashkil etadi. Kitoblar, maqolalar va boshqa yozma manbalarni o'qish orqali inson yangi so'zlar, iboralar va yozish uslublarini o'rganadi. O'qish jarayonida o'ziga yoqqan yozuvchilarning uslubini o'rganish va ulardan ilhomlanish muhimdir. Yozish ko'nikmalarini takomillashtirishda muntazam ravishda yozish amaliyoti olib borish juda muhimdir. Yozish jarayoni davomida inson o'z fikrlarini qanday qilib aniq va tushunarli ifodalashni o'rganadi. Yozish amaliyoti olib borish uchun kundalik yozish, blog yuritish yoki maqola yozish kabi usullarni qo'llash mumkin. Muntazam ravishda yozish, insonning yozish ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Yozish jarayonida o'z fikrlarini ravon va tushunarli ifodalashga harakat qilish, yozuvchining o'z uslubini rivojlantirishga yordam beradi. Yozish jarayonida fikrlarni tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Yozishdan oldin, yozmoqchi bo'lgan mavzu bo'yicha fikrlarni o'ylab ko'rish va ularni tartibga solish kerak. Yozish jarayonida fikrlarni mantiqiy ravishda joylashtirish, o'quvchining yozuvni oson tushunishiga yordam beradi. Mavzuni tanlashda, o'quvchining qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir. Yozish jarayonida aniq va ravshan fikrlar ifodalash, o'quvchining diqqatini jalb qilishga yordam beradi. Yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda tahrir va qayta ko'rib chiqish jarayoni ham muhim ahamiyatga ega. Yozilgan matnni qayta ko'rib chiqish, yozuvchining xatolarini aniqlash va ularni tuzatishga yordam beradi. Tahrir jarayonida, matnning tuzilishi, grammatikasi va stilistikasi ustida ishlash zarur. Yozuvchini o'z matnini o'qib chiqishga va uni yanada yaxshilashga undaydigan tahrir jarayoni, yozish

ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Yozish ko'nikmalarini takomillashtirishda fikrlar almashish va boshqalar bilan muloqot qilish ham muhimdir. Yozuvchilar o'zaro fikr almashish orqali yangi g'oyalarni o'rganishlari va o'z uslublarini rivojlantirishlari mumkin. Yozish guruhlariga yoki seminarlariga qatnashish, boshqalar bilan fikr almashish va o'z yozuvlarini baham ko'rish imkonini beradi. Boshqalar tomonidan berilgan fikrlar va tavsiyalar, yozuvchining o'z ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Yozish ko'nikmalarini takomillashtirishda o'z maqsadlarini belgilash ham muhimdir. Yozuvchi o'ziga aniq maqsadlar qo'yishi va ularga erishish uchun reja tuzishi kerak. Maqsadlar yozish jarayonini yanada samarali va maqsadga muvofiq olib borishga yordam beradi. Yozish jarayonida o'z maqsadlariga erishish uchun motivatsiya va intilish muhimdir. O'z maqsadlarini belgilash, yozuvchini yanada ko'proq yozishga undaydi va ularning ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Yozish ko'nikmalarini takomillashtirish jarayoni davomida sabr-toqatli bo'lish zarur. Yozish — bu o'z-o'zini rivojlantirish jarayoni, shuning uchun har bir yozuvchi o'zining yozish ko'nikmalarini yaxshilash uchun vaqt va kuch sarflashga tayyor bo'lishi kerak. Yozish jarayonida xatolar qilish tabiiydir, lekin ularni o'rganish va ulardan saboq olish muhimdir. Yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun vaqt va mehnat talab etiladi, lekin natijada olingan natijalar o'z mehnatini oqlaydi.

Yozish ko'nikmalarini takomillashtirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham muhimdir. Internet va turli xil dasturlar yordamida yozish jarayonini osonlashtirish mumkin. Yozuvchilar uchun mo'ljallangan dasturlar, grammatikani tekshirish va tahrir qilishda yordam beradi. Shuningdek, onlayn kurslar va resurslar orqali yozish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar, yozuvchilarga o'z ko'nikmalarini yanada samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, yozish ko'nikmalarini takomillashtirish har bir inson uchun muhim jarayon hisoblanadi. Yozish, fikrlarni ifodalash va muloqot qilishda asosiy vosita bo'lib, shaxsiy va professional hayotda muvaffaqiyatga erishishda katta ahamiyatga ega. Yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'qish, muntazam yozish, fikrlarni tartibga solish, tahrir qilish, fikr almashish va maqsadlar belgilash kabi usullarni qo'llash zarur. Yozish jarayonida sabr-toqatli bo'lish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, yozuvchining ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'z ko'nikmalarini takomillashtirish yo'lida har bir inson o'z maqsadlariga erishish uchun intilish va mehnat qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shahrizod Murodova, "Yozish san'ati" 2019 yil.
2. Otabek Shukurov, "Ijodiy yozuv" 2020 yil.
3. Muhammad Ali, "Yozuvchi va uning san'ati" 2018 yil.
4. Dilshodbek Tursunov, "Yozish ko'nikmalarini rivojlantirish" 2021 yil.
5. Saida Murodova, "O'zbek adabiyoti va yozuvchilik san'ati" 2022 yil.
6. Azizbek Qodirov, "Yozuvchilikning asosiy qoidalari" 2023 yil.
7. Nodira Xolbekova, "Ijodiy fikrlash va yozish" 2020 yil.

**STOL TENNISCHILARNING MASHG‘ULOT JARAYONINI
TASHKIL ETISHDA JISMONIY QOBILIYATLARINING
RIVOJLANTIRISHGA QO‘YILGAN TALABLAR**

Kenjayev Sanat Raximbaevich

Urganch davlat universiteti “Sport o‘yinlari” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada stol tennischilar jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishning umumiy qonuniyatlari, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik jarayonida jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil qilinishi, sport formasini egallash bosqichida va musobqadan keying davrlarda jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga qo‘yilgan talablar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sport mashg‘uloti, jismoniy qobiliyatlar, jismoniy rivojlanish, umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, sport formasi.

Аннотация. В данной статье описаны общие закономерности развития физических способностей игроков в настольный теннис, организация тренировок по развитию физических способностей в ходе общей и специальной физической подготовки, требования к развитию физических способностей на этапе приобретения спортивной формы и после соревнований.

Ключевые слова: спортивная подготовка, физические способности, физическое развитие, общая физическая подготовка, специальная физическая подготовка, спортивная форма.

Annotation. This article discusses the general principles of developing the physical abilities of table tennis players, the organization of physical training sessions in the process of general and special physical training, the requirements for the development of physical abilities at the stage of acquiring sports form and in the post-competition period.

Keywords: sports training, physical abilities, physical development, general physical training, special physical training, sports form.

Yuqori sport natijalariga erishish uchun jismoniy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish kerak. Jismoniy qobiliyatlari rivojlantirish sport mahoratini rivojlantirish va takomillashtirishning barcha bosqichlarida stol tennischilarni tayyorlashning ajralmas qismidir, bu orqali stol tennischi sportchilarning har tomonlama rivojlanishtirish va sog‘ligini mustahkamlash, ularning funksional imkoniyatlari va harakat xususiyatlarini oshirishda qaratiladi [3]. Jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish vazifalari jismoniy tarbiya tizimining umumiy vazifalaridan kelib chiqadi va ushbu sport turining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Tennischilarning jismoniy tayyorgarligi quyidagi muammolarni hal qilishga

qaratilgan:

1. Ko'p qirrali jismoniy rivojlanish darajasini oshirish va organizmning funksional imkoniyatlarini rivojlantirish (funktional tayyorgarlik).

2. Tayanch-harakat tizimini mustahkamlash.

3. Asosiy jismoniy sifatlar (kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik)ni tarbiyalash, shuningdek, tennischilarning o'yin faoliyati samaradorligini ta'minlaydigan jismoniy qobiliyatlarning bir-biriga bog'liq to'plamlarini rivojlantirish, masalan, tezlik qobiliyati, o'yin chaqqonligi, kuch, zarbali harakatlar, chidamlilik, sakrash qobiliyatlarini o'yin davomida qo'llay olishi.

4. Psixologik tayyorgarlikni oshirish.

5. O'quv yuklamalarini kamaytirish davrida faol dam olish va organizmni tiklash uchun sharoit yaratish [1].

Bu muammolarni hal qilish umumiy va maxsus jismoniy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT) tennischining har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi va tanlangan sport turida maxsus jismoniy fazilatlarning eng samarali namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Bu tananing funksional imkoniyatlarini oshirishga, uni har tomonlama rivojlantirishga va turli harakat ko'nikmalarni egallashga qaratilgan. Ushbu muammolarni hal qilish uchun jismoniy tarbiya vositalarining barcha turlari qo'llaniladi.

Jismoniy tayyorgarlik sport texnikasini takomillashtirish uchun asos yaratadi, bu tennischining harakat qobiliyatining namoyon bo'lishining bir shakli sifatida qaralishi kerak, shuningdek, irodaviy fazilatlarning namoyon bo'lishida aqliy barqarorlikning sharti hisoblanadi.

Umumiy jismoniy tarbiyaning vazifalari [2]:

- sportchilarning har tomonlama jismoniy rivojlanishi;
- salomatlikni mustahkamlash;
- tananing funksional imkoniyatlarini oshirish;
- harakat qobiliyatlari doirasini kengaytirish;
- jismoniy sifatlarni rivojlantirish;
- sport samaradorligini oshirish;
- organizmda yuzaga keladigan tiklanish jarayonlarini rag'batlantirish.

Shuning uchun umumiy jismoniy tarbiya vositalariga har tomonlama jismoniy rivojlanish va salomatlikni mustahkamlash muammolarini eng to'liq hal qilishga imkon beradigan mashqlar orqali:

- tennischi uchun zarur bo'lgan asosiy harakat fazilatlarini yanada to'liq rivojlantirishga erishish;
- harakatlarni umumiy muvofiqlashtirishni yaxshilash;
- mashaqqatli mashg'ulotlardan so'ng to'liqroq va tezroq tiklanishga olib keladi.

Umumiy rivojlanish mashqlari har bir mashg'ulotda bajarilishi kerak. Ularning mazmuni, hajmi va me'yorlari sportchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasiga, o'quv ishlari davriga, bo'lajak musobaqalarga bog'liq bo'ladi.

Har bir mashq bir vaqtning o'zida bir yoki bir nechta sifatni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi mumkin [5]. Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar odatda mashg'ulotning tayyorgarlik qismiga kiritiladi. Birinchidan, mashqlar kichik yuk bilan kichik mushak guruhlari uchun, keyin esa katta mushaklar va mushak guruhlari uchun amalga oshiriladi.

Tennischining ko'p qirrali jismoniy rivojlanishi o'yin uchun zarur bo'lgan barcha jismoniy fazilatlarining mutanosib rivojlanishida yotadi. Umumiy jismoniy tarbiya jarayonida qo'llaniladigan mashqlarning aksariyati organizmga turli xil ta'sir ko'rsatadi va shu bilan birga, ularning har biri birinchi navbatda u yoki bu sifatni rivojlantirishga qaratilgan. Asosiy e'tiborga qarab, ular kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlikni rivojlantirish uchun mo'ljallanadi.

Sanab o'tilgan barcha jismoniy fazilatlar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Maqsadli mashqlardan foydalanish shug'ullanuvchilarning jismoniy rivojlanishidagi muayyan kamchiliklarni bartaraf etishga imkon beradi.

Sport mashg'ulotlari jarayonida jismoniy tarbiyaning barcha bo'limlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ko'p hollarda mashqlarni, masalan, kuchni rivojlantiruvchi va tezlikni rivojlantiruvchi mashqlarni aniq farqlash deyarli mumkin emas.

Jismoniy tarbiya vositalarini tanlash stol tennisining o'ziga xos xususiyatlari, mashg'ulot davri va tennischining individual xususiyatlari bilan belgilanadi. Umumiy vositalar (kross, sport o'yinlari va boshqalar) bilan bir qatorda selektiv, mahalliy ta'sir qilish mashqlaridan ham foydalanish kerak. Albatta, mashqlarning stol tennisining o'ziga xos xususiyatlariga mos kelishini hisobga olish lozim.

Katta yoshli sportchilarni tayyorlashda jismoniy tarbiya resurslarining asosiy hajmlarini stol tennisiga eng xos bo'lgan sifatlar - tezlik, chaqqonlik, chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Biroq, yosh tennischilar bilan ishlashda ularning texnik o'sishini tezlashtirish uchun egiluvchanlik va chaqqonlikni rivojlantirishga qaratilgan vositalar tezlik, kuch va chidamlilikni rivojlantiruvchi vositalardan ustun bo'lishi kerak [4].

Mashg'ulot jarayonining yillik siklida jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning pedagogik vazifalari ko'p jihatdan jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lish va uni saqlash muammolarini hal qilishga bo'ysunadi.

Shuning uchun tayyorgarlik davrida umumiy chidamlilik darajasi dastlab ko'tariladi. Tayyorgarlik davrining ikkinchi qismida tezlik va epchillikni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi va ixtisoslashtirilgan vositalarning ulushi keskin oshadi.

Tayyorgarlikning asosiy davrida jismoniy tayyorgarlikning erishilgan darajasini saqlab qolish uchun ixtisoslashtirilgan vositalardan tashqari, stol tennischilarining fazilatleri va mahoratiga turli xil talablar qo'yadigan sport o'yinlari eng mos keladi.

O'tish davrida individual fazilatlarni rivojlantirishda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish vazifalari hal qilinadi, ular jismoniy rivojlanishni oshirishga qaratilgan, ayniqsa, kuch, egiluvchanlik va chaqqonlik mashqlari orqali birlashtiriladi. Tennischilarning jismoniy rivojlanishining ko'p qirraliligi yuqori va barqaror sport natijalariga erishishning zaruriy shartidir.

Murabbiy va sportchi mashg'ulot jarayonining barcha davr va bosqichlarida yuqori jismoniy tayyorgarlikka erishish haqida e'tibor qilishi kerak.

Shu bilan birga, tennischining jismoniy tayyorgarligi, uning malakasi va tayyorgarligi o'sib borishi bilan, bir tomondan, maxsus jismoniy fazilatlar va ko'nikmalarning eng to'liq rivojlanishiga hissa qo'shishi uchun tobora ko'proq ixtisoslashishi kerak. Boshqa tomondan, maxsus tayyorgarlikni to'ldirib, sportchilarni tayyorlash va rivojlantirishning barcha jihatlarini muvofiqlashtirishni ta'minlash lozim.

Tennischining jismoniy tayyorgarligi darajasi uning sport mahorati o'sishi bilan o'zgaradi, shuning uchun sportchining jismoniy fazilatlarini tarbiyalash stol tennisi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va zamonaviy tendensiyalari talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT) tennischining harakat qobiliyatini shakllantirishda yetakchi rol o'ynaydi va stol tennisida o'yinchining sport texnikasi va harakatlarini bajarishda harakat fazilatlarini rivojlantirish va maxsus namoyon bo'lishga qaratilgan [1]. Bu tennischining musobaqa sharoitida ushbu ko'nikmalardan foydalanish sharoiti va xususiyatini hisobga olgan holda o'yin mahorati va ko'nikmalarini egallash va takomillashtirish bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi.

Bunday holda, turli xil harakat fazilatlarini yaxshilashga qaratilgan mashqlarning munosabatlari va o'zaro ta'sirini hisobga olish kerak. Turli mashqlarning kombinatsiyasi bir-birini to'ldirishi yoki aksincha, har qanday sifatning rivojlanishini yomonlashtirishi mumkin. Shuning uchun jismoniy tarbiyada faqat harakat qobiliyatlarining ixtisoslashgan namoyon bo'lishiga mashqlarning salbiy ta'sirini istisno qilish bilan birga, mashqlarning individual sifatlarni rivojlantirishga tanlab ta'sirini ham hisobga olish kerak. Biroq, bitta sifatning eng katta rivojlanishi faqat bir vaqtning o'zida boshqalarning rivojlanish darajasining oshishi bilan mumkin. Ta'lim jarayonida jismoniy sifatlardan biriga ta'sir ko'rsatsa, boshqalarga ta'sir qiladi. Ushbu ta'sirning tabiati va kattaligi ikkita sababga bog'liq: 1) qo'llaniladigan yuklamalar, 2) jismoniy tayyorgarlik darajasi. Jismoniy tayyorgarligi past bo'lgan talabalar uchun bitta jismoniy sifatning ustun namoyon bo'lishini talab qiladigan mashq boshqalarga

jiddiy talablar qo‘yadi. Masalan, yangi boshlovchilar uchun 100 m masofaga yugurish nafaqat ularning tezligini, balki katta darajada kuchini, chidamliligini va chaqqonligini ham sinab ko‘radi [3].

Maxsus jismoniy tayyorgarlik sport texnikasini takomillashtirish uchun asos yaratadi, bu stol tennischisining harakat qobiliyatining namoyon bo‘lishining bir shakli, shuningdek, aqliy barqarorlik va irodaviy fazilatlarining namoyon bo‘lishi uchun sharoit sifatida qaralishi kerak.

Tennischilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishning asosiy maqsadi o‘ziga xos fazilatlarni uyg‘unlashtirish va chuqur rivojlantirishdan iborat bo‘lishi kerak. Sportchining individual qobiliyatlarini maksimal darajada nomoyon qilish va uning eng yaxshi fazilatlarini rivojlantirish sport mahoratiga erishishga olib keladi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari tennischining fazilatlarini rivojlantirishga, individual texnik usullarni yaxshiroq va tezroq o‘zlashtirishga, sport formasini tez egallashga yordam beradi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik yordamida birinchi navbatda tennischilari uchun zarur bo‘lgan har qanday o‘ziga xos sifatni rivojlantirish mumkin.

Muayyan fazilatlarni imtiyozli rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar yordamida individual texnikani ham yaxshilash mumkin. Shu maqsadda, odatda, bajarilishi va tuzilishi bo‘yicha ma‘lum texnik usullarga yoki ularning alohida elementlariga o‘xshash maxsus mashqlar qo‘llaniladi.

Maxsus tayyorgarlik mashqlari o‘yin harakatlari va usullariga nisbatan jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Tayyorgarlik uchun o‘yinning o‘ziga xos xususiyatlariga yaqin bo‘lgan sifatlarning eng yuqori namoyon bo‘lishini talab qiladigan o‘yin mashqlaridan foydalanish kerak.

Jismoniy tayyorgarlik sport texnikasini takomillashtirish uchun asos yaratadi, bu tennischilarning harakat qobiliyatining namoyon bo‘lishining bir shakli, shuningdek, aqliy barqarorlik va irodaviy fazilatlarining namoyon bo‘lishining ma‘lum bir sharti sifatida qaralishi kerak. Bundan tashqari, sportchining sog‘lig‘i qanchalik kuchli bo‘lsa, tananing ko‘rsatkichlari qanchalik yuqori bo‘lsa, u mashg‘ulot yuklarini qanchalik yaxshi idrok etadi va harakat fazilatlarini rivojlantirishning yuqori darajasiga tezroq erishadi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkin tennischilarning yoshi, tayyorgarligi, mashg‘ulotlar bosqichlari va vazifalariga qarab umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikning mazmuni o‘zgaradi, lekin har tomonlama sport mahoratini rivojlantirishning barcha bosqichlarida zarurdir. Shu bilan birga, sport malakasining oshishi bilan jismoniy tarbiyaning roli kamaymaydi. Biroq, uning tabiati, qo‘llaniladigan vositalar va usullar o‘zgarishlarga duchor bo‘lib, birinchi navbatda alohida e‘tiborda ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Stol tennisi. Gufranova R. Salimov U.Z. Toshkent 2017. 41-48-betlar.
2. Tennis nazariyasi va uslubiyati. A.A.Pulatov, Sh.A.Pulatov, S.K.Adilov, F.A.Pulatov. Toshkent 2017. 112-114-bet
3. Sport pedagogik mahoratini oshirish (Tennis). Sh.A.Pulatov, F.A.Pulatov, Sh.SH.Isroilov. Toshkent 2017. 127-bet
4. Методика обучения адаптивным спортивным играм (настольный теннис). Юнусов Санжар Арифжанович. Тошкент 2021 63-б.
5. Настольный теннис. Гуфранова Р. Брюхов.В.А Ташкент 2017 58-б

SHAXSGA QARSHI JINOYATLAR

Isroilov Davronbek Dilshodbek o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

To'raqulov Shoyusuf

Andijon davlat pedagogika instituti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Shaxsga qarshi jinoyatlar jamiyatda insonning asosiy huquqlari va erkinliklariga tahdid soladigan jiddiy huquqbuzarliklardir. Ushbu maqolada shaxsga qarshi jinoyatlar turlari, ularning sabab va oqibatlari, shuningdek, bunday jinoyatlarning oldini olishda huquqiy va ijtimoiy choralar ko'rib chiqiladi. Mazkur maqola jinoyatlarga qarshi kurashni kuchaytirish va shaxs xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan takliflarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: shaxsga qarshi jinoyatlar, shaxsiy huquq va erkinliklar, hayotga qarshi jinoyatlar, sog'liqqa qarshi jinoyatlar.

ANNOTATION

Crimes against the individual are serious offenses that threaten the basic rights and freedoms of a person in society. This article will consider the types of crimes against the individual, their causes and consequences, as well as legal and social measures in the Prevention of such crimes. This article will promote proposals aimed at strengthening the fight against crimes and ensuring the safety of the individual.

Keywords: crimes against the individual, personal rights and freedoms, crimes against life, crimes against health.

АННОТАЦИЯ

Преступления против личности – это серьезные правонарушения, угрожающие основным правам и свободам человека в обществе. В данной статье рассматриваются виды преступлений против личности, их причины и последствия, а также правовые и социальные меры по предупреждению таких преступлений. В данной статье выдвигаются предложения, направленные на усиление борьбы с преступностью и обеспечение безопасности личности.

Ключевые слова: преступления против личности, права и свободы личности, преступления против жизни, преступления против здоровья.

Shaxsga qarshi jinoyatlar insonning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmatini va erkinligiga tahdid soluvchi eng jiddiy huquqbuzarliklardan hisoblanadi. Bunday jinoyatlar nafaqat jabrlanuvchining shaxsiy hayotiga, balki butun jamiyat barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi globallashuv va urbanizatsiya

davrida shaxsga qarshi jinoyatlar ko'lamini kengaytib, ularning oldini olish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Shaxsga qarshi jinoyatlar turlari ko'p qirrali bo'lib, ular qotillik, tan jarohati yetkazish, zo'ravonlik, tuhmat va boshqa shakllarda namoyon bo'ladi. Ushbu jinoyatlar jamiyatda ijtimoiy notinchlikni keltirib chiqarib, davlatning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining maxsus qism birinchi bo'limi "Shaxsga qarshi jinoyatlar" deb nomlanadi. Va ushbu bo'limda shaxsga qarshi jinoyatlarning turlari yoritib berilgan. Shaxsga qarshi jinoyatlar deganda, shaxsning hayoti, sog'lig'i, jinsiy erkinligi, ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatini, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari hamda oila, yoshlar va voyaga yetmaganlarning manfaatlarini muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan ijtimoiy xavfli qilmishlar tushuniladi. Shaxsning huquq va erkinliklari huquqning turli sohalarining normalari bilan himoya qilinadi, lekin jinoyat qonunlarida fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, huquqning bu sohasi javobgarlikni qo'llash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi maxsus qismi birinchi bo'limi "Shaxsga qarshi jinoyatlar" deb nomlanishi haqida yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ushbu bo'lim shaxsga qarshi jinoyatlarning turlarini o'z ichiga olgan.

Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 3.5-moddasida, «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt»ning 6, 7, 9, 10, 11-moddalarida insonning yashash huquqi, qadr-qimmatini, ozodligi va xavfsizligi, sha'ni va obro'yini himoya qilish kabi huquqlari mustahkamlangan. Bu xalqaro huquqiy normalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ham asosini tashkil qiladi. Shaxsning huquq va erkinliklari huquqning turli sohalarining normalari bilan himoya qilinadi, lekin jinoyat qonunlarida fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, huquqning bu sohasi javobgarlikni qo'llash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi. Jinoyat kodeksining "Shaxsga qarshi jinoyatlar" bo'limida hayotga, sog'liqqa qarshi, hayot yoki sog'liq uchun xavfli, jinsiy erkinlikka, oilaga, yoshlarga va axloqqa, shaxsning ozodligi, sha'ni, qadr-qimmatiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyatlar jamiyat uchun jiddiy xavf tug'diradi. Jinoyat kodeksining maxsus qismi birinchi bo'limida shaxsga qarshi jinoyatlarning bir necha turi uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo'lib, ular bevosita obyekti bo'yicha quyidagi guruhlariga ajratilgan:

- 1) hayotga qarshi jinoyatlar;
- 2) sog'liqqa qarshi jinoyatlar;
- 3) hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar;
- 4) jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar;
- 5) oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar;

6) shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar;

7) fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VII bobi "Shaxsiy huquq va erkinliklar" deb nomlanadi. 25-moddada "Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqaqd qilish eng og'ir jinoyatdir. O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi"².

Jinoyat kodeksida:

MAXSUS QISM

BIRINCHI BO`LIM

SHAXSGA QARSHI JINOYATLAR

I bob. Hayotga qarshi jinoyatlar

97-modda. Qasddan odam o'ldirish

Qasddan odam o'ldirish —

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish, ya'ni:

- a) ikki yoki undan ortiq shaxsni;*
- b) homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolni;*
- v) aybdorga ayon bo'lgan ojiz ahvoldagi shaxsni;*
- g) o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini;*
- d) boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo'lgan usulda;*
- e) ommaviy tartibsizliklar jarayonida;*
- j) o'ta shafqatsizlik bilan;*
- z) nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda;*
- i) tamagirlik niyatida;*
- k) milliy yoki irqiy adovat zamirida;*
- l) bezorilik oqibatida;*
- m) diniy taassublar zamirida;*
- n) inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olish yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida;*
- o) boshqa biror jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish maqsadida;*
- p) bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh a'zosi tomonidan yoxud o'sha guruh manfaatlarini ko'zlagan holda;*
- r) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;*
- s) o'ta xavfli retsidivist tomonidan qasddan odam o'ldirilishi — o'n besh yildan*

¹ <https://api.ziynet.uz/uploads/books/459675/5af510f270565.pdf>

² <https://lex.uz/docs/-6445145>

yigirma besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi.

98-modda. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish

Jabrlanuvchi tomonidan qilingan g'ayriqonuniy zo'rlik yoki og'ir haqorat, shuningdek uning boshqa g'ayriqonuniy harakatlari tufayli to'satdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish — ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

99-modda. Onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi

Onaning o'z chaqalog'ini tug'ish vaqtida yoki tug'ilishi hamon qasddan o'ldirishi — bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

100-modda. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish — uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi³.

Hayotga qarshi jinoyatlar – inson hayotiga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishlardir. Hayotga qarshi jinoyatlarning turdosh obykti boshqa shaxs hayotini muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Hayotga qarshi jinoyatlarning obyektiv tomoni qonunga xilof ravishda boshqa shaxsning hayotidan mahrum qilishda ifodalanadi. Odatda, inson hayotidan mahrum qilish jismoniy ta'sir o'tkazish orqali sodir etiladi, biroq u ruhiy ta'sir (qo'rqitish) o'tkazish yo'li bilan ham sodir etilishi mumkin. Xususan, bunda harakat huquqqa xilof ravishda boshqa shaxs hayotidan mahrum qilishga olib keluvchi jabrlanuvchiga bevosita jismoniy (masalan, har qanday qurol, ashyodan foydalanish, bo'g'ish, kuydirish, zaharlash, elektr toki bilan ta'sir ko'rsatish, o'ta issiq yoki o'ta sovuq havoda ochiq yerda qoldirish va h.k.) yoki ruhiy (og'ir kasallangan shaxsga ruhiy jarohat yetkazish yo'li bilan hayotidan mahrum qilish) ta'sir o'tkazishda ifodalanadi.

Hayotga qarshi jinoyatlar moddiy tarkibli bo'lib, uni tugallangan deb topish uchun jabrlanuvchining o'limi sifatidagi oqibat ro'y bergan bo'lishi lozim (faqat istisno tariqasida Jinoyat kodeksi 103 va 103-1-moddalarida o'zini o'zi o'ldirishga suiqasd qilish tugallangan qilmish sifatida belgilangan). Hayotga qarshi jinoyatlarning subyektiv tomoni qasd (JK 97–101-m., 103 m.) yoki ehtiyotsizlik (JK 102-m.) da ifodalanishi mumkin.

Hayotga qarshi jinoyatlarning subyektiv tomoni 16 yoshga to'lgan aqli raso har qanday jismoniy shaxs bo'lishi mumkin. Ayrim jinoyatlar uchun (JK 97, 98-m.) 14 yoshdan javobgarlik belgilangan. Hayotga qarshi ayrim jinoyatlarning subyektlari maxsus

³ <https://lex.uz/docs/-111453>

belgilarga ega. Masalan, chaqaloqning onasi (JK 99-m.).

Shaxsga qarshi jinoyatlar nafaqat huquqbuzarlik, balki inson hayoti va jamiyat barqarorligiga jiddiy zarar yetkazuvchi muammo hisoblanadi. Ushbu jinoyatlar shaxsning huquqlari va erkinliklarini poymol qilishi, jamiyatda qo'rquv va beqarorlik kayfiyatini yuzaga keltirishi bilan xavflidir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bunday jinoyatlarning sabablarini faqat qonunchilikdagi kamchiliklar yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar bilan izohlashning o'zi yetarli emas. Bu jinoyatlar ko'pincha oilaviy, ma'naviy va psixologik omillar bilan ham bog'liq bo'lib, ularni oldini olish kompleks chora-tadbirlarni talab qiladi. Shaxsga qarshi jinoyatlarning oqibatlarini individual darajada jabr ko'rgan insonlarning ruhiy va jismoniy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatsa, kengroq miqyosda jamiyatdagi ishonch muhitini zaiflashtiradi. Jabrlanuvchilar ko'pincha adolatni tiklashda qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa huquq tizimining kuchsizligi haqidagi tasavvurni mustahkamlaydi. Shu sababli, bu muammoga qarshi kurashda qonunchilikni takomillashtirish bilan bir qatorda, ijtimoiy adolatni ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Jamiyatdagi shaxs xavfsizligini ta'minlashning muhim vositalaridan biri bu ta'lim va xabardorlikni oshirishdir. Aholining huquqiy madaniyatini rivojlantirish orqali jinoyatlarning oldini olish mumkin. Shu bilan birga, davlat tomonidan ta'minlanadigan ijtimoiy dasturlar, masalan, zo'ravonlikdan jabrlanganlarga yordam ko'rsatish markazlari, ishsizlikni kamaytirish bo'yicha tadbirlar va sog'lom oilaviy muhitni shakllantirishga qaratilgan dasturlar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, jinoyatlarni tergov qilish va sud jarayonlarini adolatli va shaffof o'tkazish orqali jabrlanuvchilarning ishonchini mustahkamlash kerak. Jinoyatchilar uchun jazo muqarrar ekanligini ko'rsatish huquqbuzarliklar sonining kamayishiga yordam beradi. Kelgusida jamiyat va davlat birgalikda jinoyatlarga qarshi kurashni kuchaytirishi zarur. Huquqni muhofaza qilish organlari, ta'lim muassasalari va nodavlat tashkilotlarning hamkorligi orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Har bir fuqaro shaxs xavfsizligini ta'minlash jarayonida ishtirok etishi lozim. Bu nafaqat qonunlarning bajarilishi, balki jamiyatdagi ijtimoiy birdamlik va mas'uliyat tuyg'usini rivojlantirishni ham talab qiladi. Shunday qilib, shaxsga qarshi jinoyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish inson huquqlari himoyasi, jamiyat barqarorligi va huquqiy davlat qurilishining asosiy shartidir. Har birimiz bu jarayonga o'z hissamizni qo'shishimiz, huquq va adolatni mustahkamlashda faol ishtirok etishimiz kerak. Faqat shundagina xavfsiz va farovon jamiyatni yaratish mumkin bo'ladi. Shaxsga qarshi jinoyatlar – jamiyatning asosiy huquqiy va axloqiy tamoyillariga zid bo'lgan og'ir jinoyatlardir. Bunday jinoyatlar nafaqat alohida shaxslarning huquqlari va erkinliklariga tahdid soladi, balki butun jamiyatning barqarorligi va xavfsizligini izdan chiqaradi. Ushbu jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish har bir fuqaroning huquqiy madaniyatini oshirish, qonunlarni qat'iy amalga oshirish hamda ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlash bilan uzviy

bog‘liqdir. Huquqiy tizimni takomillashtirish, ijtimoiy ongini yuksaltirish va har bir shaxsning daxlsizligini himoya qilish orqali biz jinoyatlar sonini kamaytirish va insonlarning tinch, farovon hayotini ta‘minlashga erisha olamiz. Shaxsning hayoti, sog‘lig‘i va sha‘ni davlat va jamiyat tomonidan alohida e‘tibor bilan qo‘riqlanishi kerak, chunki ular har bir insonning ajralmas huquqlari sifatida himoyalanihga loyiqdir. Shaxsga qarshi jinoyatlar insonning asosiy huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi eng og‘ir jinoyat turlaridan biri hisoblanadi. Bunday jinoyatlar nafaqat jabrlanuvchining hayoti, sog‘lig‘i yoki sha‘ni kabi daxlsiz huquqlariga zarar yetkazadi, balki butun jamiyatda adolat, xavfsizlik va tinchlik muhitini buzadi. Shu bois, bunday jinoyatlarning oldini olish jamiyat va davlat uchun ustuvor vazifa bo‘lib qolishi zarur. Jinoyatlarning oldini olish uchun huquqiy tizimni kuchaytirish, odil sudlovni ta‘minlash va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini yanada samarali tashkil etish muhimdir. Shu bilan birga, fuqarolar orasida huquqiy savodxonlikni oshirish, jinoyatlarga nisbatan muhosasiz munosabat shakllantirish va shaxsiy mas‘uliyatni targ‘ib qilish dolzarb masaladir. Har bir fuqaroning daxlsizligini ta‘minlash – bu faqat davlatning emas, balki jamiyatning ham birgalikdagi burchidir. Inson huquqlarini hurmat qilish, jinoyatchilikni bartaraf etish va adolatni qaror toptirish orqali biz jamiyatda ishonch va barqarorlikni ta‘minlaymiz. Faqat adolat va qonun ustuvor bo‘lgan muhitda inson o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishi, oila va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi mumkin. Shu sababli, har birimiz shaxsga qarshi jinoyatlar haqida xabardor bo‘lib, ularni bartaraf etishga o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak. Bu esa insonparvarlik va qonuniylik tamoyillarini mustahkamlash, tinch va farovon jamiyat qurishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi
3. <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/459675/5af510f270565.pdf>
4. <https://lex.uz/docs/-6445145>
5. M.H. RUSTAMBOYEV, B.J. AHROROV JINOYAT HUQUQI (MAXSUS QISM)
6. <https://lex.uz/docs/-111453>

LEKSIK BIRLIKLARNI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK
TILIGA O'GIRISHDA TARJIMA USULLARI (MARTIN MIDOUS
"INTIZOMLI 365 KUN?" ASARI ASOSIDA)

Sevinch Akbarovna Abdullayeva

Termiz davlat universiteti talabasi

sabdullaeva185@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada leksemalarning ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimasi va Martin Midousning "Intizomli 365" asarining mohiyati o'quvchining lingvistik tushunchasiga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda tahlil qilinadi. Maqolada tarjimon ularni o'zbek tiliga tarjima qilishdan oldin leksikologik va grammatik tahlil uchun shablonlarni taklif qiladi.

Kalit so'zlar: leksemalar, gramatik leksikologik, semantik transformatsiya, ingliz-o'zbek tarjima

TRANSLATION WAYS LEXICAL UNITS FROM ENGLISH
INTO UZBEK (ON THE EXAMPLE OF 365 DAYS WITH
SELF-DISCIPLINE BY MARTIN MIDOUS)

Abstract: This article analyzes the translation of lexemes from English into Uzbek and the essence of Martin Meadows's "365 day with self-discipline" taking into account the factors influencing the linguistic understanding of the reader. The article suggests templates for lexicological and grammatical analysis before the translator translates them into Uzbek.

Keywords: lexemes, grammatical, lexicological, semantic transformation, English-Uzbek translation

KIRISH

Transformatsiya lingvistikada tarjima jarayonida bir tilning tuzilishlarini boshqa tilning tuzilishlariga moslashtirishni anglatadi. Bu jarayonda matnning lug'aviy, grammatik yoki uslubiy jihatlari yangi tilning qonun-qoidalariga moslashtiriladi. Transformatsiya, ayniqsa, strukturasi va qoidalari bir-biridan sezilarli farq qiladigan tillar o'rtasidagi tarjimada muhim o'rin tutadi. Transformatsiyaning ahamiyati:

Bu usul tarjima sifatini oshiradi, matnning asl mazmuni va uslubini saqlashga yordam beradi. Bir tilning grammatik va leksik me'yorlarini boshqasiga moslashtirish orqali tushunarli va tabiiy matn yaratadi. Xato yoki noaniqliklarni kamaytiradi. Transformatsiya tarjimonning ijodiy qobiliyatini talab qiladigan murakkab jarayon bo'lib, matnning semantik mazmunini saqlab, o'quvchi uchun aniq va oson tushunarli qilib beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

O'zbek tili leksemalarga judayam boy til hisoblanadi va bu tilning jozibadorligini oshiradi. Leksikologiya tilshunoslikning til lug'at tarkibi, ya'ni muayyan bir tilning leksikasini o'rganuvchi bo'limi. Leksikologiya har bir so'zni yolg'iz qo'llash emas, balki boshqa so'zlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Leksikologiya tilshunoslikning leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya yoki semantika, etimologiya, stilistika hamda so'z yasalishi haqidagi ta'limot kabi sohalar bilan chambarchas bog'liq. Leksikologiyaning asosiy muommolaridan biri so'zning mustaqil til birligi sifatida mavjudligi masalasidir.

Transformatsiya (lot. "Transformato" – "qayta o'zgarish," "hosil bo'lish"). Transformatsiyalarnig ham turli shakllari bo'lib ular tarjima jaroyinida tarjimonga konkretlashtirish, umumlashtirish yoki tushirish kabi imkoniyatlarni beradi.

NATIJALAR

Martin Midous — o'z hayotini shaxsiy rivojlanishga bag'ishlagan yozuvchi taxallusi. U hayotida keskin o'zgarishlar kiritib, o'zini doimiy ravishda yangilab turadi. Uning tajribalari (shaxsiy sinovlar va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda) hayotini yaxshilashga yordam beradi. Agar siz o'z chegaralaringizni kengaytirishga va o'zingizning eng yaxshi versiyangiz bo'lishni o'rganishga qiziqsangiz, Martinning asarlari sizga juda yoqadi.

Ushbu maqolalada leksikologik birliklarni ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girishda tarjima jarayonida leksik o'zgarishlar (jummalarni qo'shish, konkretlashtirish va umumlashtirish, tushirish usullaridan foydalangan holda tahlil qilinadi).

MUHOKAMA

1. Ingliz tilida: "It takes only a moment to make the wrong choice".

O'zbek tilida: "Noto'g'ri qaror qabul qilish uchun bor yo'g'i bir soniya kifoya qiladi"

O'zgarishlar:

Gap bo'laklarining joy almashishiga misollar:

1. "It takes" ingliz tilida gap boshida va "kifoya qiladi" o'zbek tilida gap o'rtasida
2. "Wrong choice" ingliz tilida gap oxirida va "Noto'g'ri qaror" o'zbek tilida gap boshida.

2. Ingliz tilida: "I daresay an obligation — to make decisions that are based on rational thinking".

O'zbek tilida: "Mantiqiy fikrlashga oid qaror qabul qilishga majburman".

O'zgarishlar:

1. Shakl almashtirish:

Ingliz tilida "decisions" so'zi ko'plikda va o'zbek tilida "qaror" so'zi birlikda.

2. Tushirib qoldirish:

Tarjima jarayonida "I" birinchi shaxs olmashi tushirib qoldirildi. O'zbek tilida

ma'lum gap turida tarjima qilindi. Ya'ni kesimdagi shaxs-sondan egani tiklash mumkin.

3.

Ingliz

tilida: "Compared to our ancestors, we have it easy"

O'zbek tilida: "Ajdodlarimizga qaraganda, bizda ro'za tutish oson kechadi.

O'zgarishlar:

So'z turkumlarining almashinuvi:

1. Ingliz tilidagi "it" olmoshi o'zbek tiliga "ro'za tutish" qo'shma fe'l shaklida o'tdi.

2. Ingliz tilidagi "easy" sifati o'zbek tiliga "oson kechadi" qo'shma fe'l shaklida o'tdi.

XULOSA

Xulosa o'rnida keltirish mumkin: leksikologik birliklarni tarjima qilish jarayonida yuzaga kelgan muommolarni o'rganib chiqib ularga yechim topish va gaplarni tahlil qilish tarjima sifatini oshiradi. Asar tarjimasi tarkibidagi gaplar va so'zlar o'zbek tiliga tarjima qilinganda gap bo'laklari tartibi o'zgargan. Gaplar tarkibidagi foydalanilgan ba'zi neologizmlar o'zbek tilining izohli lug'atiga kiritilmagan va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning o'zbek tilida muqobil variant yo'qligi sababli hech qanday o'zgarishsiz qolgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rithvik Singh, I don't love you anymore, Penguin Random House India Pvt. Limited, 2024.

2. Oxford University, Oxford Dictionary of Current English. – USA: Oxford University press, 2006.

3. Kamoljonovich S.J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PRESPEKTIV MUAMMOLARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), (2)1. 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>

4. Aliboyeva, Nigina. "SELECTION OF SPECIAL TRANSLATION METHODS FOR ADEQUATE INTERPRETATION OF CHILDREN'S LITERATURE." Scientific Collection «InterConf» 120 (2022): 121-124.

5. ALIBOYEVA, NIGINA ALISHER QIZI. "APPROACHES TO THE ANALYSIS OF LITERARY TEXT TRANSLATION IN MODERN TRANSLATION STUDIES." THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука 7 (2022): 140-144.

6. Nafisa, A. Using Stylistic Devices in Translation as an Example of the Story a Christmas Carol. JournalNX, 40-43

7. Kizi, A.N.O. (2019). Lexical problems in rendering the story "A Christmas Carol" by Charles Dickens into uzbek. ЕВРАЗИЙСКИЙ НАУЧНЫЙ, 34.

8.Sirojiddinova, O. S., & Odil o'g'li, J. M. (2023). PROBLEMS ENCOUNTERED IN THE TRANSLATION OF DRAMATIC WORKS. TADQIQOTLAR. UZ, 28(2), 66-69.

9.Odil o'g'li, J. M., & Mamarajabova, O. S. (2023). THE CONCEPTUAL STRUCTURE OF MODERN LINGUISTICS. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(12), 771-773.

10. Nabi, F. (2024). OFFICIAL DOCUMENTS IN DARI LANGUAGE, ITS TRANSLATION CHALLENGES. Philological research: language, literature, education, 4(4), 73-76.

11.Nabi, F., & Xudayqulov , A. (2024). GRAMMATICAL RULES OF PRINCIPLES OF ENGLISH TO DARI TRANSLATION. Interpretation and Researches, (8(30). извлечено от
<https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2459>

RITHVIK SINGH QALAMIGA MANSUB “I DON’T LOVE YOU ANYMORE” (ISHQ SAFARI) ASARINI INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH JARAYONIDA YUZAGA KELGAN MORFOLOGIK TRANSFORMATSIYALAR TAHLILI

Ochilova Shaxnoza Mamarajab qizi

Termiz davlat universiteti

bintumamarajab@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola Rithvik Singhning “I Don’t Love You Anymore” asarini ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga kelgan morfologik transformatsiyalarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Mazkur tahlil orqali tarjima jarayonida qo‘llaniladigan asosiy uslublar va transformatsiyalarni tushuntirish, shuningdek, tarjima jarayonida yuzaga keladigan til va madaniy tafovutlarni qanday engish mumkinligini ko‘rsatish maqsad qilingan. Maqolada tahlil qilingan misollar orqali tarjimaning semantik va uslubiy xususiyatlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: tarjima, morfologik transformatsiyalar, ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima, Rithvik Singh, lingvistik tahlil.

**ANALYSIS OF MORPHOLOGICAL TRANSFORMATIONS
IN TRANSLATING “I DON’T LOVE YOU ANYMORE” BY
RITHVIK SINGH FROM ENGLISH TO UZBEK**

ABSTRACT: This article is dedicated to analyzing the morphological transformations encountered during the process of translating Rithvik Singh's work “I Don’t Love You Anymore” from English into Uzbek. The purpose of this analysis is to explain the main techniques and transformations used in the translation process and to explore how linguistic and cultural differences arising during translation can be addressed. The study examines the semantic and stylistic features of the translation through analyzed examples.

Key words: translation, morphological transformations, English-Uzbek translation, Rithvik Singh, linguistic analysis.

KIRISH

Rithvik Singh, Hindistonda tug‘ilib o‘sgan zamonaviy yozuvchi va shoir, o‘zining qisqa va ta’sirchan asarlari bilan tanilgan. Singhning asarlaridagi poetik mazmun oddiy, lekin chuqur hissiy jihatlar bilan keng ommaga manzur keladi. Tarjima jarayonida, ayniqsa, adabiy asarlar tarjimasida til tizimlarining morfologik va sintaktik o‘zgarishlari muhim o‘rin tutadi. Tarjima qiluvchi asarning nafaqat ma’nosini, balki

uning hissiy ruhiyatini ham boshqa madaniyatga moslashtirishi kerak. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida til strukturasi va madaniy tafovutlar sababli yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun morfologik transformatsiyalar zarur. Ushbu maqola tarjima jarayonidagi bunday o‘zgarishlarning sabablari va ularning asar mazmuniga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Bu nafaqat lingvistik nuqtai nazardan, balki tarjimonning ijodiy yondashuvini ham tahlil qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu maqola doirasida tarjima jarayonidagi morfologik transformatsiyalarni aniqlash va tahlil qilish uchun ilmiy adabiyotlar va zamonaviy tarjima nazariyalari o‘rganildi. Tarjima jarayonida morfologik transformatsiyalarni o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan. Morfologik transformatsiyalar asosan til tizimidagi tuzilmalarning mos kelmasligi tufayli yuzaga keladi. Masalan, ingliz tilida fe’llar va sifat doshlardan ot yasash oddiy, o‘zbek tilida esa bu jarayon morfologik o‘zgarishlarni talab qiladi. Tadqiqotda tarjima jarayonida yuzaga kelgan asosiy muammolarni tahlil qilish uchun taqqoslash va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Metodika asosida turli tarjima nazariyalari, jumladan, ekvivalentlik nazariyasi va funksional muvofiqlik yondashuvi ko‘rib chiqildi. Asarning har bir qismi o‘zbek o‘quvchisiga semantik va uslubiy jihatdan yaqinlashtirildi.

NATIJALAR

Tarjima jarayonida yuzaga keladigan morfologik transformatsiyalar asarning mazmunini va hissiy ta’sirini saqlash uchun muhimdir. Masalan, 'love' so‘zining 'oshiq' sifatida tarjimasi o‘zbek tilida nafaqat mazmunan, balki uslubiy jihatdan ham mos keladi. Madaniy tafovutlar sababli ba’zi iboralarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilishning imkoni yo‘q. Tarjima jarayonida asarning asosiy g‘oyasini saqlab qolish uchun lingvistik o‘zgarishlar va madaniy moslashuvlar birgalikda qo‘llanilishi kerak. Bundan tashqari, tarjimonning ijodiy yondashuvi va lingvistik bilimlari jarayonda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu transformatsiyalar o‘zbek tilidagi kitobxonlar uchun matnni yanada tushunarli va qiziqarli qiladi.

MUHOKAMA

Tahlil davomida quyidagi morfologik transformatsiyalar aniqlangan va tahlil qilingan:

1. Fe’l otga aylangan:

- Misol: *“I love you”* → *“Senga oshiqman”* [1.B5].

2. Olmosh otga aylangan:

- Misol: *“For someone whose love comes in waves”* → *“Dengiz to‘lqinlangandagina sevadigan inson uchun”* [1.B14].

3. Ot fe’lga aylangan:

- Misol: *“For someone whose love comes in waves”* → *“Dengiz to‘lqinlangandagina sevadigan inson uchun”* [1.B14].

4. Sifatdosh sifatga aylangan:

- Misol: “*There’s a dying patient who has fallen in love with life*” → “*Hayotga muhabbatsiz xasta bemor*” [1.B8].

XULOSA

Rithvik Singhning 'I Don't Love You Anymore' asarining tarjima jarayoni morfologik transformatsiyalarning naqadar muhimligini ko'rsatadi. Ushbu o'zgarishlar tarjimaning sifatini oshirishga yordam beradi va asarning mazmunini boshqa madaniyatga moslashtiriladi. Tarjima nazariyasi va amaliyoti sohasida ushbu tahlillar yanada kengroq ilmiy yondashuvlarni talab qiladi. Tarjima qilinadigan adabiy asarlarni o'rganish orqali morfologik transformatsiyalarni chuqurroq tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Tarjimada olingan tajribalar yosh tarjimonlar va lingvistlar uchun qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rithvik Singh, I don't love you anymore, Penguin Random House India Pvt. Limited, 2024.
2. Oxford University, Oxford Dictionary of Current English. – USA: Oxford University press, 2006.
3. Kamoljonovich S.J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PRESPEKTIV MUAMMOLARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), (2)1. 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>
4. Aliboyeva, Nigina. "SELECTION OF SPECIAL TRANSLATION METHODS FOR ADEQUATE INTERPRETATION OF CHILDREN'S LITERATURE." Scientific Collection «InterConf» 120 (2022): 121-124.
Annotatsiya Ushbu maqolada uloq-ko'pkarining O'zbekistonda etnosport turi sifatida e'tirof etilishi, uning o'ziga xosligi, an'ana va marosimlari, yoshlar tarbiyasida tutgan o'rni hamda ahamiyati keng yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada uloq-ko'pkarining o'zbeklardan tashqari boshqa millat va xalqlarda ham mavjud ekanligi, uloq-ko'pkari so'zining kelib chiqish tarixi, o'yinning boshqacha nomlanishi haqidagi muhim ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: milliy xalq o'yinlari, etnosport, uloq-ko'pkari, ot sporti, qamchi, chavandoz, xalq sayllari, jismoniy holati, chidamlilik.

ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И РАЗВИТИЕ КОКПАРИ (УЛОКА) В УЗБЕКИСТАНЕ

Мамишев Олим Эркинович

Студент Научно-исследовательского института физического
воспитания и спорта, г. Чирчик

E-mail: olimerkinovich@gmail.com Tel: +99890 978 88 91

Аннотация в данной статье широко освещено признание улак-копкари как этнического вида спорта в Узбекистане, его уникальность, традиции и обряды, его место и значение в воспитании молодежи. Также в статье представлены важные сведения о существовании улак-копкари у других народов и народов помимо узбеков, история происхождения слова улак-копкари, различные названия игры.

Ключевые слова: национальные народные игры, этносport, козел и лошадь, конный спорт, кнут, наездник, народные игры, физическое состояние, выносливость.

THE HISTORY OF THE ORIGIN AND DEVELOPMENT OF KOKPARI (ULOQ) IN UZBEKISTAN.

Olim Erkinovich Mamishev

Student of the Scientific Research Institute of Physical Education and Sports,
Chirchik City

E-mail: olimerkinovich@gmail.com Tel: +99890 978 88 91

Annotation this article provides a comprehensive overview of the recognition of uloq-kupkari as an ethnosport in Uzbekistan, its uniqueness, traditions and rituals, its role and importance in the education of young people. The article also describes the existence of uloq-kupkari among other nationalities and peoples, the history of the origin of the word uloq-kupkari, and important information about the different names of the game.

Keywords: national folk games, ethnosport, uloq-ko'kari, equestrian sport, whip, rider, folk festivals, physical condition, endurance.

Kirish. Uloq-ko'pkari Markaziy Osiyodagi deyarli barcha xalqlar, xususan o'zbek xalqining qadimiy va ommaviy tomoshabop milliy xalq o'yinlaridan biri. Ko'pkari asosan to'ylarda, bayram va sayllarda katta kenglikda o'tkaziladi. Uloq-ko'pkari atamasining kelib chiqish tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, bu borada juda ko'plab qarashlar, farazlar hamda ilmiy xulosalar bor. Eng qadimiy an'analardan biri ko'pkari –uloq yoki echki kesish.[1] O'rta Osiyoda zardushtiylik davrida paydo bo'lgan bu ot o'yini hozirgacha O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston xalqlarining sevimli mashg'uloti hisoblanadi. O'zbekistonda bu o'yinni –uloq, Tojikistonda –buzkashi deb nomlanadi. Ko'pkari uchun eng chaqqon, eng kuchli otlar tanlab olinadi. Ko'pkari maydoni uzunligi 300-400m, eni esa 20-30 m tashkil qiladi. O'yinning maqsadi qo'chqor tana go'shtini yugurishda ko'tarish va uni ma'lum bir nuqtaga yetkazish yoki katta qozonga tashlashdir. O'yin chavandozlardan katta kuch, kuchli ushlar va yerga osilgan egarda qolish qobiliyatini talab qiladi. Bu yerda har bir ishtirokchi individual ravishda ishlaydi. Shuningdek, chavandozlar jamoa bo'lib harakat qiladigan "ulak" o'yini mavjud. "Ko'kpar" nomi qozoq tilidan "ko'k bo'ri" deb tarjima qilingan va uning kelib chiqishi quyidagi nazariya bilan bog'liq: qadimda qishda ko'chmanchilar bo'rilarga ov uyushtirgan va uyga qaytib, ular o'zlari uchun o'yin-kulgi uyushtirgan, yirtqichning tana go'shti uchun kurash shaklida. Vaqt o'tishi bilan bu ovchilik an'anasi o'yinga aylandi, bo'ri tana go'shti qo'chqor bilan almashtirildi va yirik bayramlarda musobaqalar o'tkazila boshlandi. Bugungi kunda bu o'yin Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston va boshqa Osiyo davlatlarida rasmiy ot sporti sanaladi. [2]

Asosiy qism. Hozirgi kunda ko'pkari o'yini Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston va Afg'onistonda keng tarqalgan milliy sport turi sanaladi. Eraklarning kuch-qudrati, chavandozlik hamda epchillik mahoratini sinovchi ushbu milliy sport ming yillardan beri o'zbekning ajralmas va o'ziga xos ot musobaqasidir. Ushbu o'yin o'zbeklarda "ko'pkari" yoki "uloq", qirg'izlarda "ko'kbo'ru", qozoqlarda "ko'kpar tortu", tojiklar va afg'on o'zbeklarida "bo'zkashi" deb yuritiladi. Oltoydagi turkiy qavmlar va qirg'izlarda bu o'yinning chavandozlariga "bo'rilar", shimol qirg'izlari bu milliy sportni "uloq tortish", o'yinchilarni esa "uloqchilar" deb atashadi.

Ba'zan uning "ko'kpar" shakli "ko'k pari"dan kelib chiqqanligi ham aytiladi. Qadimdan ot o'yinlari turkiy xalqlar ijtimoiy hayotining ajralmas bo'lagi bo'lgan. Qozog'istonning shimolidan topilgan Botay madaniyati vakillari bundan 5,5 ming yillar oldin yovvoyi otlarni xonakilashtirganligi arxeologik materiallar orqali mutaxassislarga ma'lum. Bundan tashqari Qadimgi Farg'ona/Davan davlatining xitoyliklarni o'ziga jalb qilgan "samoviy otlari" ham mashhurdir. Turkiy xalqlarda milliy ot sportining ko'pkaridan boshqa turli nomdagi shakllari – qiz qumay, yigit quu, chavgon, enish/odarish, ot ustida kurash, ukuruk salmaqtuu, oltin qoboq, beyge (poyga), audarispak, tengе alu, jambi atuu, at omiraulastiruu, jorg'a jaris, kumis aluu yoki juzuk iluu, tumaq uruu kabi ot o'yinlari mavjud. Bu o'yinlarning barchasi o'tni xonakilashtirgandan so'ng ko'ngilocharlik va askarlarni jangga tayyorlash maqsadida o'ylab topilgan.[1;3]

Ko'kbo'ri/ko'pkari o'yinining paydo bo'lishi haqida turli fikrlar mavjud. Chavandozlar qo'ylar suruviga hujum qilgan va ularni g'ayrioddiy ovlash shaklini taqlid qilish natijasida bu o'yin kelib chiqqan, shuning uchun ham bu o'yin "ko'kbo'ri" deb atalgan, deya mutaxassislar ta'kidlaydi. O'yin taktikasini qadimiy bir jang ta'limoti sifatida qarash ham mavjud. Bu o'yinda chavandoz va ot bir-birini so'zsiz harakatlar bilan tushungan holda asosiy maqsad sari harakat qilishi ham diqqatga sazovordir. Shuningdek, qadimgi turkiylarning jang an'analariga ko'ra, o'lgan jangchining jasadini jangdan olib kelgan askarga uning molu-mulki berilar edi. O'yin ko'klam kelishi bilan o'ynalganini ko'chmanchi tamaddunning o'troq madaniyat bilan omixtalashuvining nodir namunasi bo'lgan qadimgi turkiylarning qishning suronli kunlaridan eson-omon chiqib, ushbu xalqlarning eng yaqin do'sti va hayot manbai bo'lgan – otlar va arg'umoqlar bilan birgalikda nishonlagani aslida inson va buyuk dashtning eng yirtqich hayvoni – muqaddas bo'ri bilan ilk uchrashuvi sharafiga uyushtirgan deb ham sanash mumkin.

O'zbekistonda uloq o'yini bugungacha o'z ahamiyatini yo'qotmasdan kelayotgan hududlardan biri bu Samarqand viloyatidir. Samarqandda juda ko'p o'z urug' nomini yaxshi eslaydigan o'zbek urug'lari yashab kelmoqda, ko'pkari o'yini ishtirokchilari o'z urug'i yoki qishlog'i nomidan o'yinda ishtirok etgan. Samarqandda ko'pkari (ko'kbo'ri) odatda mart va oktyabr oylarida to'y va voyaga yetmaganlarning sunnat to'ylari munosabati bilan o'tkazilgan.

Xulosa. Qisqa qilib aytganda, ko'pkari o'yini boshqa turkiy xalqlarda bo'lgani kabi o'zbeklarda ham keng yoyilgan va kunimizgacha davom etib kelayotgan etnosport turlaridan biridir. Uning shakllanish sabablari ijtimoiy hayotda ko'ngilocharlik va jangovor tayyorgarlik vazifasi edi. Ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi turklar o'z mollari uchun yaylov izlayotgan yoki qarorgohlarida o'tirganlarida har qanday vaqtda hujumga duchor bo'lish xavfi bor edi. Bundan tashqari, xalq (bo'dun) xoqon tomonidan istalgan vaqtda urushga chaqirilishi mumkin edi. Buning uchun har bir turk

yosh yigitlari jismoniy madaniyatni rivojlantiruvchi mashqlarni bajarishi kerak. Mashqlarda o‘yin-kulgi tuyg‘usi mavjud bo‘lsa-da, bu aslida urush mashqlari edi. Turli manyovrlarni ot ustida bajara oladigan askar turk harbiy jamiyatining asosiy tayanchi sanalgan. Biroq, tarixning qaysi zamonida o‘zbeklarning ijtimoiy hayotida ko‘pkari/ko‘kbo‘ri o‘yini paydo bo‘lganini aniqlashda yozma manbalar bizga yordam beradi. Afsuski, turkiy xalqlarning ijtimoiy hayoti haqida asosiy ma‘lumotlarni beruvchi Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida bir qator o‘yinlar bilan birga uchramaydi. Shuningdek, biz boshqa tarixiy asarlarda XV-XVI asrlarda ham tilga olinganini ko‘rmaymiz. Ayniqsa, qiz quvish o‘yinida to‘ydan oldin so‘yilib quda tomonga olib kelingan go‘shni qiz tomondan erkaklar olib qochishi, uni tutish uchun kuyov tomondan erkaklar otda quvalashi kabi shakli ham juda eski zamonlarda mavjud bo‘lganini tadqiqotchilar ta’kidlaydilar. Fikrimizcha, ko‘pkari o‘yini aynan shu o‘yinning takomillashtirilgan va nomi yillar davomida o‘zgargan shaklidir. Bu yerda shuni ta’kidlamoq kerakki, o‘zbek qabilalari XVI asrdan so‘ngra bu ot o‘yini yanada keng yoyilishida katta xizmat qilganlar. Natijada u oltin qoboq va qiz quvish o‘yidan ustun kelib ommalashib ketgan, afg‘on o‘zbeklari va Tojikistonda “bo‘zkashi” sifatida keng yoyilishining sababi ham o‘zbek urug‘larining faol migratsiyasi bilan bog‘liq

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mengli o‘g‘li, T. A. (2023). ULOQ-KO ‘PKARI ETNOSPORT TURI SIFATIDA. Лучшие интеллектуальные исследования, 6(2), 84-89.
2. Saodat, I. Ko ‘k” leksemasining etimologik tavsifi. O ‘ZBEKISTON, 75.
3. F.A.Керимов Спортда илмий тадқиқотлар. Т.: Илмий техника ахбороти-press нашриёти, 2018. -348 Б.
4. Скандинавияда юриш усуллари асослари Н.Т. Станский,А.А. Алексеенко, В.А. Колошкина. – Витебск: ВГУ имени П.М. Машерова, 2015. – 32 б
5. Azizov, M. M. (2021). ogli. The effectiveness of using the nordic walking wellness exercise in extracurricular time of primary school students. Eur J Sport Sci, 1(2), 32.
6. Мураккаб даволаш дастурида Скандинавия юриш фойдаланиш тажрибаси «Академия здорового образа жизни» «Сибирь» / С.О. Аверин, Л.П. Собянина, Е.В. Шишина - 2016. - Т.93, №2-2. - В. 24-25.
7. Azizov, M. (2023). METHODOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MECHANISMS OF USING THE MOBILE APPLICATION IN SUPPORTING THE POPULATION OF OUR COUNTRY TO WALKING IN THE METHOD OF SCANDINAVIAN WALKING. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 4(6), 45-50.
8. Замятина, А. В. Скандинавская ходьба как физкультурно - оздоровительная технология. Магистерская диссертация. НИ ТГУ, Томск 2016. – 44 с.

9. Азизов, М. (2022). СКАНДИНАВЧА ЮРИШ БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ АХОЛИНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ МАНИТОРИНГ ҚИЛУВЧИ КОМПЮТЕР ДАСТУРИ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(11), 58-61.
10. Полетаева, А. Скандинавская ходьба. Здоровье легким шагом / А. Полетаева. – М.: Копиринг, 2012. – 60 с.
11. Азизов, М. М. (2022). СКАНДИНАВИЯ УСУЛИДА ЮРИШНИ ҚЎЛЛАШДА МОБИЛ ИЛОВАДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕХАНИЗМЛАРИНИНГ МЕТОДИК ХУСУСИЯТЛАРИ. Fan-Sportga, (7), 27-30.
12. Sayfullayevna, M. L., & Usmonovna, P. S. (2023). Dunyo Va O'rta Osiya Xalqlarining Milliy Ot Sporti O'yinlari Turlari. Miasto Przyszłości, 33, 259-262.
13. Mirjamolov, M. X., & Pulatova, G. D. (2021). The Mental Health of People with Disabilities. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 1(6), 654-656.
14. Pulatova, G. (2022). Exercise in childhood benefits those with cerebral palsy in later life. ПРОБЛЕМИ І ПЕРСПЕКТИВИ РОЗВИТКУ СПОРТИВНИХ ІГОР ТА ОДНОБОРСТВ У ЗАКЛАДАХ ВИЩОЇ ОСВІТИ, 1, 150-152.

**KORXONALARDA FAVQULODDA VAZIYATLARNI
OLDINI OLISH UCHUN QARATILGAN SANOAT SIGNALLARI
VA XAVFSIZLIK BELGILARI**

Madaminova Shahloxon Sharifjon qizi

Andijon mashinasozlik instituti

Mashinasozlik texnologiyasi fakulteti

Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi yo'nalishi talabasi

Tel. +998945185150

Email: shahlomadaminova84@gmail.com

Annotatsiya: Ishlab chiqarish korxonalarida ishlatiladigan mashina va jihozlarga qo'yiladigan asosiy talablar, ularning ishchilar uchun pishiq va mustahkam hamda ishlatishning osonligi, xavfsizlik mezonlari tizimlari bilan belgilanadi. Korxonalarda mashina va jihozlar xavfsizligini ta'minlash uchun, loyihalash jarayonida uning qanday ish bajarishini hisobga olgan holda, asosiy ish bajaruvchi qismlarini mukammal joylashtirishning ixcham usullarini qo'llash, unga shakl berish va muhofaza qilish qurilmalarini joylashtirishni birga olib borish zarur.

Kalit so'zlar: Signallar, Xavfsizlik belgilari, sirena, yorug'lik tarqatuvchi vositalar, chastota, agregat dastgohlar,

Kirish: Korxonalarda sodir bo'lishi mumkin bo'ladigan xavfli vaziyatlarda ogohlantirish vositasi sifatida signal tizimlari mavjud bo'lib, qo'llanilishiga ko'ra amaliy, ogohlantiruvchi va belgilovchi turlarga bo'linadi. Bundan tashqari signal tizimlari tovushli va ko'rinadigan bo'lishi mumkin.

Tovushli signal tizimiga sirena, qo'ng'iroq, gudok va boshqalar kiradi. Tovush yordamida beriladigan signal, korxonada muhitida bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday tovush va shovqinlardan farqli ravishda iloji boricha quyi chastotadagi (2000 Gs gacha) tovushdan tashkil topgan bo'lishi va korxonaning har bir hududida yaqqol eshitilishini ta'minlashi kerak.

Ko'rinadigan turlariga xar xil yorug'lik tarqatuvchi vositalar yordamida qizil, sariq, yashil, ko'k va boshqa ranglar yordamida xavf darajalarini belgilash va ularga kerakli bo'lgan harakatlar bilan javob berish tartibi belgilangan.

Qizil rang - umuman taqiqlovchi rang bo'lib, agar u biror bir avtomatlashtirilgan vositaga o'rnatilgan bo'lsa, qizil lampa yonishi odam aralashishi kerak bo'lgan holat paydo bo'lganini ko'rsatadi, yoki bo'lmasa bajarilayotgan jarayon to'xtab qolganidan dalolat beradi.

Sariq rang – ogohlantiruvchi hisoblanadi. Bunda, mashina va qurilmalarning avtomat rejimiga o'tishini yoki ba'zi bir chegara nuqtaga yaqinlashib qolganini

ko'rsatuvchi, qurilishda esa xavfli mintaqalarni to'suvchi vositalarda va zararli moddalar solingan idishlarni belgilashda qo'llaniladi.

Yashil rang – xabar beruvchi hisoblanadi. Uni ruxsat etiladigan, masalan, mashina jihozlarning ishga tayyorligini bildiradigan, xavfli vaziyatlardan chiqish yo'llarini belgilovchi lampalar sifatida qo'llash mumkin.

Ko'k rang – ko'rsatma, yong'in xavfsizligi belgilari, axborot. Yorug'lik signali keng tarqalgan vositalar qatoriga kirsam ham, uning asosiy kamchiligi signal berilayotgan tomondan qarama-qarshi tomonga qarab turgan odam bu vositalarni ko'rmay qolishi mumkin. Shuning uchun ham yorug'lik signallari doimiy kuzatib turuvchi operator bo'lgan vaqtda yaxshi natija beradi. Ogohlantiruvchi signal vositalari biron-bir xavfli vaziyat vujudga kelishini ogoh etadi. Bunday signallar har xil plakatlar, ogohlantiruvchi yozuvlar, har xil datchiklarga asoslangan signal tizimlari, mashinalarning ishlash holatini ko'rsatuvchi moslamalar (masalan, qizib ketishi, moylash tizimlarida moy borligini ko'rsatuvchi moslamalar) shular jumlasiga kiradi. Bular uchun maxsus ranglardagi moslamalardan (ranglari GOST 15548-70) foydalaniladi.

Ishlab chiqarishdagi xavfli chegaralar yoki mintaqalar. Inson hayoti va sog'ligiga doimiy yoki vaqti-vaqti bilan xavf tug'diruvchi joy xavfli chegara yoki mintaqqa deb ataladi. Bu asosan mashina va jihozlarning ochiq holdagi aylanadigan va harakatlanadigan qismlari, aylanadigan qirquvchi asboblari, zanjirli va tishli uzatmalar, harakatlanuvchi stanoklarning ishchi stollari, issiq yuzalar, zaharli kimyoviy moddalar va pardozlashga ishlatiladigan kislota, ishqorlar va boshqa o'yuvchi moddalar bilan ishlaydigan ish joylari, elektr tokidan foydalanishdagi ish o'rinlari, yuklarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib yuradigan kranlar va mashinalarning harakat chegarasi doirasidagi xavfli chegaralar yoki mintaqalar shular jumlasiga kiradi.

Aylanuvchi qismlar bilan ishchilarning kiyimidan yoki sochidan ilintirib olishi mumkin bo'lgan jihoz va uskunalarni atroflari ayniqsa o'ta xavfli chegara hisoblanadi. Shuningdek, jihoz va uskunalarda ishlaganda elektr tokidan zararlanish, issiqlik, elektomagnit, ionlashgan nurlar, shovqin, titrash, ultratovush, zaharli gazlar va bug'lar ta'siriga tushib qolish ham xavfli chegaralar yoki mintaqalar qatoriga kiradi. Qurilma va uskunalarda ishlayotganda qirqimlarining uchib ketishi, ishlayotgan asboblarning sinib har tomonga sachrab ketishi, detal yaxshi mahkamlanmaganligi natijasida ishlov berish jarayonida otilib ketishi natijasida ishchilarni jarohat olishi ham xavfli mintaqalar qatoriga kiritiladi.

Xavfli mintaqalar doimiy, harakatlanuvchan va vaqt-vaqti bilan paydo bo'ladigan turlarga bo'linadi:

- a) Doimiy xavfli mintaqalarga qayishli, zanjirli va tishli uzatmalar, dastgohlarning qirqish qismlari va harakatlanuvchi valiklari kiradi.
- b) Harakatlanuvchan xavfli mintaqalarga esa prokat qilish stanlari, potok

liniyalari, konveyerlar, qirqish joyi o'zgarib turadigan agregat dastgohlari va boshqalar kiradi.

v) Vaqt-vaqti bilan paydo bo'ladigan xavfli mintaqalarga yuk ko'tarish kranlari, kran balkalar, tal va telferlar kiradi. Chunki bu qurilmalar ish joylarini doimiy o'zgartirib turadi va qaerda ish bajarayotgan bo'lsa, shu erda xavfli mintaqa vujudga keladi.

Xavfli mintaqalardan saqlanish vositalari va aslahalari ikki guruhga bo'linadi:

1. Jamoa muhofaza aslahalari, ishchilarni ionlanuvchi nurlardan, elektromagnit, magnit va elektr maydonlaridan, mexanik, kimyoviy biologik omillardan muhofazalovchi vositalar kiradi.

2. Shaxsiy muhofaza aslahalari, maxsus terini, nafas olish organlarini, qo'lni, yuzni, ko'zni, quloqni muhofaza qiluvchi vositalar va aslahalar kiradi.

Ishlab chiqarish korxonalarida ishlatiladigan mashina va jihozlarga qo'yiladigan asosiy talablar, ularning ishchilar uchun pishiq va mustahkam hamda ishlatishning osonligi, xavfsizlik mezonlari tizimlari bilan belgilanadi. Korxonalarda mashina va jihozlar xavfsizligini ta'minlash uchun, loyihalash jarayonida uning qanday ish bajarishini hisobga olgan holda, asosiy ish bajaruvchi qismlarini mukammal joylashtirishning ixcham usullarini qo'llash, unga shakl berish va muhofaza qilish qurilmalarini joylashtirishni birga olib borish zarur.

Shuni hisobga olish kerakki qurilmalarga o'rnatilgan muhofaza vositalari uning asosiy qismi bilan uyg'unlashib, iloji boricha ko'proq mehnat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilsin. Masalan, qurilmalarga o'rnatilgan xavfsizlikni ta'minlash qopqoqlari, faqatgina xavfli joylar to'sig'i bo'lib qolmasdan, shovqinni kamaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi, charxning xavfsizligini taminlovchi qurilma esa bir vaqtning o'zida shamol yordamida charx qirindilarini chiqarib yuborishga mo'ljallangan mahalliy shamollatish vazifasini ham bajaradi.

Xavfsizlik darajasi yuqori bo'lgan jihozlar, masalan, bosim ostida ishlatiladigan bug' va suv isitish (115°S yuqori) qozonlari, gaz ballonlari, kompressorlar, gaz tashuvchi sistemalar yuqori bosimli gaz quvurlari va boshqalardan foydalanilayotganda, ishlab chiqarishda xavfsizlikni ta'minlash davlat nazorati idoralarining maxsus talablarini bajarish shart hisoblanadi. Korxonalarda elektr toki, elektromagnit to'lqinlari, radioaktiv moddalar ta'sirini kamaytiruvchi yoki butunlay yo'qotuvchi va ulardan saqlanish choratadbirlar ko'rish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mashina jihozlarning xavfsiz va puxta ishlashini ta'minlashdagi asosiy omillaridan biri, ularning texnik holatini nazorat qiluvchi asbob-uskunalar, avtomatik boshqarish va muvofiqlashtirish qurilmalari bilan jihozlashdan iborat.

Avtomatik boshqarish tizimlari ishlamay qolish ehtimoli vujudga kelganda, texnologig jarayonni boshqarish ishchi zimmasiga tushadi va uning xavfsizligini to'liq

boshqaruvi, ishchi mahoratiga bog‘liq bo‘ladi, shu sababli ushbu jihozlarni loyihalashda va ishlatishda, boshqaruvchi ishchining, yoshi 18 dan kam bo‘lmasligi, maxsus o‘qitilishi, bilimlari tekshirilib attestatsiyadan o‘tganligi, uning ruhiy va fiziologik jihatlarini hisobga olish kerak. Shu bilan birga qurilmalarni xavfsizlik mezonlari talablari darajasiga, rangli bo‘yoqlar tanlab bo‘yash ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.I.Gazinazarova S.Yuldashev O.R.“Mehnat muhofazasi maxsus kursi Toshkent 2014.61-63-b.
2. E.I.Gazinazarova S.Yuldashev O.R.“Mehnat muhofazasi maxsus kursi Toshkent 2014.61-63-b.
3. Qudratov A.Q, G‘aniev A, Yormatov G‘.Y. “Hayotiy faoliyat xavfsizligi”. Ma‘ruza kursi –Toshkent: “Aloqachi”, 2005. 233-235-b.
4. Yo‘ldoshev O.R, Raximov O.D, Xo‘jaqulova R.T, Xasanova O.T, “Mehnatni muhofaza qilish”. O‘quv qo‘llanma.–Toshkent: “Mehnat”, 2005. 127-128-b.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLINI VA HUDUDLARNI
FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZA QILISH

Madaminova Shahloxon Sharifjon qizi

Andijon mashinasozlik instituti

Mashinasozlik texnologiyasi fakulteti Mehnat muhofazasi va

texnika xavfsizligi yo'nalishi talabasi

Tel. +998945185150

Email: shahlomadaminova84@gmail.com

Annotation: In the article, personal protective equipment, organization and distribution of personal protective equipment, selection of a helmet-mask and checking the suitability of a gas mask, simple respiratory protection equipment and respirators, a PTM-1 dust mask and cotton wool-gauze bandages are used in practice to develop skills in obtaining and using a personal first aid kit and an anti-chemical first aid kit.

Абстракт: В статье средства индивидуальной защиты, организация и распределение средств индивидуальной защиты, подбор каски-маски и проверка пригодности противогаса, простых средств защиты органов дыхания и респираторов, противопылевого противогаса ПТМ-1 и ваты. -марлевые бинты используются на практике для формирования навыков получения и использования личной аптечки и противохимической аптечки.

Annotatsiya: Maqolada turli xususiyatlardagi favqulodda vaziyatlardan muhofazalash, barcha ob'ektlar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlarining eng asosiy vazifalaridan bo'lib, bu narsa «Aholi va hududlarni tabiiy xamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida» gi Qonunning 11-moddasida bayon etilganidek, belgilangan tartibda evakuatsiyaga oid tadbirlarni o'tkazish va odamlarni joylashtirish maqsadida oldindan bazalar tayyorlab qo'yish lozimligi qayd etilgan. Shu sababali hozirgi vaqtda xam favqulodda vaaziyatning ko'lamiga qarab muhofaza qilishni eng omil usullaridan biri imkon darajasida aholini xavfli joylardan olib chiqib ketish, ya'ni evakuatsiya tadbiri hisoblanadi.

Key words: Protection, filter, insulation, solid, PTM-1, comprehensive protection, individual protection, filter.

Ключевые слова: Защита, фильтр, изоляция, сплошная, ПТМ-1, комплексная защита, индивидуальная защита, фильтр.

Kalit so'zlar: Xavfsizlik, aholi, jarayon, tayyorlash, protokol, tizim, xavfsiz joylar, tezlik, butkul ko'chirish, vaqtinchalik ko'chirish, tozalash, amalga oshirish (ko'chirish) va rejimda amalga oshirish, boshqarish, yuqori tayyorgarlik rejimida, barqaror rejimda.

Kirish: Prezident tomonidan 17.08.2022 yildagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-790-son Qonun imzolandi. Qonunga asosan, Fuqarolarga favqulodda vaziyatlar zonalarida ishlaganligi uchun bepul tibbiy xizmat, kompensatsiyalar va boshqa imtiyozlar taqdim etiladi. Prognoz qilingan yoki ro‘y bergan favqulodda vaziyatning ko‘lami va holatiga qarab muayyan hududda Favqulodda vaziyatlar davlat tizimining quyidagi rejimlari o‘rnatiladi:

Favqulodda holat – davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining, korxonalarining, muassasalarning va tashkilotlarning alohida ish rejimi. Bunda fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda yuridik shaxslarning huquqlariga maxsus qonun bilan belgilangan cheklashlarga yo‘l qo‘yiladi, shuningdek, ularga qo‘shimcha majburiyatlar yuklanishi mumkin. Favqulodda holat, odatda vaqtinchalik tadbir bo‘lib, real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, ichki qurolli mojarolar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta‘minlashni ko‘zlab joriy etiladi

Kundalik rejim - muayyan hududda, ob‘yektda favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi mavjud bo‘lmaganda;

yuqori tayyorgarlik rejimi - favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi mavjud bo‘lganda;

Favqulodda vaziyat rejimi - favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda va favqulodda vaziyatlar davrida.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborotni yashirish, o‘z vaqtida taqdim etmaslik yoki bila turib yolg‘on axborot taqdim etish taqiqlanadi. Davlat favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish holati, aholining xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar, prognoz qilinayotgan yoki ro‘y bergan favqulodda vaziyatlar, ulardan muhofazalanish usullari to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari, shu jumladan maxsus texnika vositalari orqali aholini o‘z vaqtida va ishonchli tarzda xabardor qilishi shart.

Bundan tashqari, davlat tomonidan favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish holati, aholining xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar, prognoz qilinayotgan yoki ro‘y bergan favqulodda vaziyatlar, ulardan muhofazalanish usullari to‘g‘risida OAV orqali aholi o‘z vaqtida va ishonchli xabardor qilinishi shart etib belgilandi.

Shuningdek, favqulodda vaziyatlarni e‘lon qilish mahalliy miqyosdagi favqulodda vaziyatlarda — hokimlarning tegishli qarorlari bilan, respublika miqyosidagi va transchegaraviy favqulodda vaziyatlarda — hukumat qarori bilan amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Favqulodda vaziyatlar ro‘y berish manbaiga qarab quyidagilarga bo‘linadi:

- tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar;

- texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Fuqarolarga favqulodda vaziyatlar zonalarida ishlaganligi uchun bepul tibbiy xizmat, kompensatsiyalar va boshqa imtiyozlar beriladi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etadi, aholi hayoti va salomatligini, tinchlik va harbiy davrda favqulodda vaziyatlar vujudga kelganda ularning oqibatlarini tugatadi.

Zararlarni kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Xulosa: Favqulodda vaziyatlarning oldini olish harakatlarini boshqarishning davlat tizimi (FVDT) faoliyatini ta'minlaydi. O'zbekiston fuqaro muhofazasi ishiga rahbarlik qiladi. Vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi, hokimliklarning aholini va milliy boyligini muhofaza qiladi. Avariya, halokatlar va tabiiy ofatlar tufayli vujudga kelgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga doir faoliyatini muvofiqlashtirib boradi. Mamlakat hududini muhofaza qilishga hamda xalq xo'jaligi obyektlari faoliyatining barqarorligini oshirishga, aholini, mansabdor shaxslarni hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollardagi harakatlarni boshqarishning davlat tuzilmalarini tayyorlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun moliya, oziq-ovqat, tibbiyot va moddiy-texnika resurslarining davlat favqulodda zaxira fondlarini tashkil etishga doir ishlarni muvofiqlashtirib boradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ilyosova Z.F. «Hayot faoliyati xavfsizligi asoslari». Toshkent: «Mehnat». 2001. 98 b.
2. Nurxo'jaev A.K., Yunusov M.Yu., Xabibullaev I.X. Favqulodda vaziyatlar va muhofaza tadbirlari. Toshkent: «Universitet». 2001. 67 b.
3. Belov S.V., Devisilov V.A. i dr. Bezopasnost jiznedeyatelnosti. Moskva: «MGU». 2003. 360 s.
4. Farmonov A.E., Igamberdiev A.R. va boshq. Hayot faoliyati xavfsizligi. Toshkent: «Universitet». 2006. 96 b.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AHOLI VA HUDUDLARNI
FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZA QILISHGA VA
FUQARO MUHOFAZASIGA OID QONUN VA QONUN OSTI
HUJJATLARINING MAZMUNI VA MOHIYATI**

Madaminova Shahloxon Sharifjon qizi

Andijon mashinasozlik instituti, Mashinasozlik texnologiyasi fakulteti

Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi yo'nalishi talabasi

Tel. +998945185150

Email: shahlomadaminova84@gmail.com

Annotatsiya: Qonunlarda FVlarning xususiyati, turlari, FVlardan muhofaza qilish sohasini davlat tomonidan tartibga solish, FVlarni bartaraf etish tartibi va boshqa masalalar belgilab berilgan. Ushbu qonun FVlarni oldini olish, undan aholi va hududlarni muhofaza qilish, talofotlarni kamaytirishga hamda FVlarni bartaraf etish sohasida olib boriladigan tadbirlarda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori, Kodeks, Davlat standartlari, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi.

Kirish: Fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar rahbarlar tarkibini tayyorlash bo‘yicha Respublika markazi 1992- yili tashkil etilib, 1996- yilgacha faoliyat ko‘rsatgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning taklifiga binoan 1995-yil 16 -avgust kuni Favqulodda Vaziyatlar Vazirligini tuzish haqida qaror qabul qilingan.

Aholini va iqtisodiyot obyektlarini tabiiy ofatlardan muhofaza qilishning samarali tizimini tashkil etish, respublikada tabiiy va texnogen tushdagi FVlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 1996 -yil 4 -mart kuni “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”dagi PF-1378 Farmoni imzolanib, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) tashkil etildi. Farmon bilan FVlarni bartaraf etish, aholi hayoti va salomatligini, moddiy va ma’naviy qadriyatlarini muhofaza qilish, shuningdek tinchlik va harbiy davrda FVlar vujudga kelganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararlarini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish vazirlikning asosiy vazifalaridan biri deb belgilandi.

1998 -yil 11- dekabr kuni “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 4 -

martdagi O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to‘g‘risidagi PF-1378-sonli Farmoniga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi PF-2153 Farmon e‘lon qilindi. Unga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996- yil 4-martdagi PF-1378-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoniga o‘zgartirish kiritilib, O‘zbekiston Respublikasida aholi va xalq xo‘jaligi obyektlarini muhofaza etishni ta‘minlashga rahbar etib O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri belgilandi. Prezidentimizning farmoniga asosan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar va tumanlarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi va tegishli hududlarning hokimlari, vazirliklar, idoralar, uyushmalar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda vazirlar, davlat qo‘mitalari va uyushmalar boshqaruvlari raislari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning direktor va boshliqlari aholi va xalq xo‘jaligi obyektlarini muhofaza etishga rahbar etib tayinlandilar. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar va tumanlarda FVlar boshqarmalarining tashkil etilishi va boshqarma boshliqlarining joylardagi FM boshliqlarining o‘rinbosarlari hisoblanishi aholini va hududlarni FVlardan muhofaza qilish sohasining ish faoliyatini yanada mustahamlashda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Farmonning 6-bandida O‘zbekiston Respublikasi FVVning o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlarini bajarish vazirliklar, idoralar, uyushmalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy ekanligi belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”da 1996-yil 4-martdagi PF-1378-son Farmonini bajarish yuzasidan 1997-yil 23-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini to‘g‘risida”gi 558-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi(FVDT) to‘g‘risidagi Nizom va uning tuzilmasi tasdiqlandi. Shuningdek, aholini va hududlarni FVlardan muhofaza qilish bo‘yicha funksiyalar O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralariga yuklandi.

O‘zbekiston Respublikasi FVDT faoliyati samaradorligini yanada oshirish maqsadida, 2011-yil 24-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 242-son qarori e‘lon qilinib, 1997-yil 23-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini to‘g‘risida”gi 558-son qarori o‘z kuchini yo‘qotdi. Yangi qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi FVDT to‘g‘risidagi Nizom va O‘zbekiston Respublikasi FVDT faoliyati ustidan davlat boshqaruvi va nazorati sxemasi tasdiqlandi. Shuningdek, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy

hokimiyat organlariga hamda boshqa tashkilotlarga aholini va hududlarni FVdan muhofaza qilish bo'yicha funksiyalar yuklandi.

Yangi qabul qilingan qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi to'g'risidagi Nizom, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasi FVDTning funksional quyi tizimi doirasidagi aholi va hududlarni FVlardan muhofaza qilish bo'yicha funksiyalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining O'zbekiston Respublikasi FVDTning hududiy quyi tizimi doirasidagi aholi va hududlarni FVlardan muhofaza qilish bo'yicha funksiyalari tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-oktyabrdagi "Texnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida"gi 455-son qaroriga asosan ularning tasniflari tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-avgustdagi "Favqulodda vaziyat ro'y berish xavfi yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabar berishning avtomatlashtirilgan tizimini rivojlantirish hamda undan samarali foydalanishni tashkil etish to'g'risida"gi 361-son qarori bilan 2017-yil 8-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo'lganligi haqida O'zbekiston Respublikasi aholisiga xabar berish va ma'lumot(axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish va rivojlantirish to'g'risida"gi 601-son qarori o'z kuchini yo'qotdi.

Yangi qabul qilingan qarorga asosan quyidagilar tasdiqlandi:

1. Favqulodda vaziyat ro'y berish xavfi yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabar berishning avtomatlashtirilgan tizimini rivojlantirish hamda undan samarali foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom;

2. 2023 - 2028-yillarda respublika darajasidagi va mahalliy darajadagi xabar berish tizimini rivojlantirish uchun terminal komplekslarini xarid qilish dasturi.

O'zbekiston Respublikasining "Favqulodda holat to'g'risida"gi 2021-yil 15-dekabrdagi Konstitutsiyaviy Qonuni mamlakatimizning butun hududida yoki ayrim joylarida favqulodda holatni joriy etish shartlari va tartibini belgilab berdi. Ushbu Konstitutsiyaviy Qonunga asosan keng qamrovli avariya-qutqaruv ishlari va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlar(AQBKBI)ni amalga oshirilishini talab etadigan yirik halokatlar, tabiiy ofatlar, epidemiyalar hamda boshqa tabiiy va texnogen xususiyatga ega FVlar, favqulodda ekologik vaziyatlar favqulodda holat(FH)ni joriy etish hollari jumlasiga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-noyabrdagi "Aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog'liq FVlardan muhofaza qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-426-son Oarori bilan Toshqin suvlari va sel oqimlarini xavf-xatarsiz o'tkazib yuborishni

ta'minlash, qor ko'chkisi va yer ko'chkisi hodisalari xavfini kamaytirish bo'yicha hukumat komissiyasi (Toshqinga qarshi hukumat komissiyasi)ning tarkibi tasdiqlandi. Shuningdek, ushbu qaror bilan "Aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog'liq FVlardan muhofaza qilish ishlarini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi nizom ham tasdiqlandi.

Xulosa: Mavzuni o'rganish jarayonida men aholi va hududlarni FVlardan muhofaza qilishga oid qonun va qonun osti hujjatlarining mazmuni va mohiyatini o'rganib chiqdim. FVlarni oldini olish va ularni bartaraf etish ishlarini to'g'ri tashkil etishda mutaxassislardan ushbu sohaning huquqiy asoslarini mukammal bilishlari talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi 1996-yil 4-martdagi PF-1378 -son Farmoni
2. Qudratov A.Q, G'aniev A, Yormatov G.Y. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma'ruza kursi –Toshkent: "Aloqachi", 2005. 233-235-b.
3. E.I.Gazinazarova S.Yuldashev O.R. "Mehnat muhofazasi maxsus kursi Toshkent 2014.61-63-b.

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	TIL TARIXI VA UNING PAYDO BO‘LISHI	3
2	TEACHER’S VOICE AND TONE IN THE CLASSROOM	6
3	INGLIZ TILIDAGI TASHQI IJTIMOYIY REKLAMALARDA REGULYATIV (YO‘NALTIRUVCHI) FUNKSIYASINI QO‘LLANISHI	9
4	URBANIZATSIYANING FALSAFIY MUAMMO SIFATIDAGI TAHLILI	12
5	UCH O‘LCHOVLI FRAKTAL TUZILISHLI OBYEKTLAR	17
6	UNIVERSITET FAOLYATI SAMARATORLIGINI BAHOLASHDA REGRESSION MODELNING TAHLILI	21
7	DAVLAT MOLIYA TIZIMIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI	25
8	METHODS FOR THE FORMATION OF CREATIVISM IN THE PROFESSION IN FUTURE EDUCATORS	31
9	BIOMEXANIK TAHLIL VA PARODONT KASALLIKLARI: PARODONT KASALLIKLARIDA O‘ZIGA XOS BIOMEXANIK YUKLANISHLAR VA STRESSNI TAHLIL QILISH, OPTIMAL DAVOLASH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH	39
10	СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОДНОСОСТАВНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В РУССКИХ И ЗАРУБЕЖНЫХ ПОСЛОВИЦАХ	45
11	МЕТОДИЧЕСКИЕ ПРИЕМЫ АКТИВИЗАЦИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ОБЗОРНЫХ ТЕМ В ЛИТЕРАТУРЕ	50
12	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YANGILANGAN KONSTITUTSIYASI: HUQUQIY ISLOHOTLARNING YANGI BOSQICHI	56
13	"KONSTITUTSIYA — ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI"	59
14	QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIUDA PIYOZNI SOCHMA USULDA YETISHTIRISH AFZALIGI VA HOSILDORLIGI O‘RGANISH	63
15	TARAQQIET STRATEGIYALARI, KONCEPCIYALARI VA DASTURLARINING TAHLILI VA TASHIHI	67
16	RAQAMLI TARIX PLATFORMALARINI YARATISH VA ULARNING DIDAKTIKASI	74
17	O‘G‘IRLIK JINOYATINING OLDINI OLIH FAOLIYATINI TARTIBI	78
18	ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СРАВНИТЕЛЬНОГО АНАЛИЗА В ФОРМИРОВАНИИ ЯЗЫКОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ	82
19	SEPARATOR ISHCHI QISMLARINI O‘ZARO ISHQALANISHINIG PAXTA XOM ASHYOSIGA TA‘SIRI	86
20	HARBIY BILIM YURLARIDA CHET TILINI O‘QITISHNING DOLZARB MASALALARI	90

21	MASHMIXER DASTURIDAN FOYDALANGAN HOLDA POLILAKTIK KISLOTA (PLA) BIOMATERIALLARINI LOYIHALASH VA MODELLASHTIRISH VA 3D BIOPRINTER ORQALI ISHLAB CHIQRISH	94
22	YOZISH KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH	101
23	STOL TENNISCHILARNING MASHG'ULOT JARAYONINI TASHKIL ETISHDA JISMONIY QOBILIYATLARINING RIVOJLANTIRISHGA QO'YILGAN TALABLAR	103
24	SHAXSGA QARSHI JINOYATLAR	109
25	LEKSIK BIRLIKLARNI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA O'GIRISHDA TARJIMA USULLARI (MARTIN MIDOUS "INTIZOMLI 365 KUN?" ASARI ASOSIDA)	115
26	RITHVIK SINGH QALAMIGA MANSUB "I DON'T LOVE YOU ANYMORE" (ISHQ SAFARI) ASARINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH JARAYONIDA YUZAGA KELGAN MORFOLOGIK TRANSFORMATSIYALAR TAHLILI	119
27	TARJIMA JARAYONIDA DUCH KELADIGAN SO'Z SHAKLLARI ALMASHINUVI	122
28	ELVIN BRUKS UAYT QALAMIGA MANSUB "CHALOTTE'S WEB" (SHARLOTTANING TO'RI) ASARINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH JARAYONIDA YUZAGA KELGAN LEKSIK-SEMANTIK VA SINTAKTIK MUAMMOLAR	125
29	TARIX FANINI O'QITISHDA XORJIY DAVLATLAR TAJRIBASI	128
30	БИРИКТИРУВЧИ ТУКИМА ДИСПЛАЗИЯСИНИНГ ОПЕРАТИВ КОРРЕКЦИЈАСИДАН КЕЙИНГИ РЕАБИЛИТАЦИЈАНИ БАХОЛАШ	136
31	ИССЛЕДОВАНИЕ ПОРЯДОК УКЛАДКИ КЕРНА	140
32	МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ И УПРАВЛЕНИЮ МЕЛИОРАТИВНЫМИ РЕЖИМАМИ	144
33	ПОКАЗАТЕЛИ И КРИТЕРИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ МЕЛИОРАТИВНЫХ СИСТЕМ	149
34	O'SMIR VA OILA MUNOSABATLARIDAGI OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINI ME'YORLASHTIRISH BO'YICHA KONSULTATIV YORDAM BERISH USULLARI	153
35	HUQUQIY MADANIYAT SHAXS MA'NAVIYATI MEZONI SIFATIDA	156
36	APPLICATION OF BLOCKCHAIN TECHNOLOGY FOR MONITORING AND IMPROVING ENERGY EFFICIENCY IN MANUFACTURING PROCESSES	159
37	O'ZBEKISTONDA KO'PKARI- ULOQNI KELIB CHIQUISH TARIXI VA RIVOJLANISHI	164
38	KORXONALARDA FAVQULODDA VAZIYATLARNI OLDINI OLISH UCHUN QARATILGAN SANOAT SIGNALLARI VA XAVFSIZLIK BELGILARI	169
39	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLINI VA HUDUDLARNI FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZA QILISH	173

40	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AHOLI VA HUDUDLARNI FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZA QILISHGA VA FUQARO MUHOFAZASIGA OID QONUN VA QONUN OSTI HUJJATLARINING MAZMUNI VA MOHIYATI	176
-----------	---	------------



JOURNAL OF NEW CENTRY INNOVATIONS

IN ALL AREAS

